Davlat ekologik ekspertizasi bir qancha normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinganiga qaramasdan, ushbu masalada ko‘rib chiqilayotgan boshqaruv mexanizmini samarali amalga oshirishni qiyinlashtiradigan bir qator bo‘shliqlar mavjud. Birinchi navbatda, davlat ekologik ekspertizasi obyektlari ro‘yxati aniq keltirilgan va ushbu ro‘yxatda atrof-muhitga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan ko‘p jihatlar e’tiborga olinmagan. Xususan, ushbu ro‘yxatda normativ-huquqiy hujjatlar loyihasi davlat ekologik ekspertizasi obyekti bo‘lishi belgilanmagan. Mazkur masalani tadqiq qilgan Sh. Bahronovning qayd etishicha, “normativ-huquqiy hujjatlar loyihasi davlat ekologik ekspertizasi obyektlari qatoriga kiritilishi lozim” [20].

Mazkur fikrga mutlaqo qo‘shilgan holda ta’kidlash joizki, atrof-muhitni muhofaza qilish, ekotizimni saqlash hamda ekologik barqarorlikni ta’minlashda normativ-huquqiy hujjatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois davlat ekologik ekspertizasi obyektlari qatoriga normativ-huquqiy hujjatlar loyihasini ham kiritish lozim.

G. Uzakova aholi punktlarida qurilish qilishga oid munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy me’yorlar atrof-muhitni va uning tarkibiy qismlarini muhofaza qilish va yerdan foydalanishni amalga oshirishda tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ta’minlashga qaratilganini ta’kidlaydi [21, 76-b.].

Lekin normativ-huquqiy hujjatlarda mavjud ayrim normalar atrof-muhitni muhofaza qilishga emas, balki undan maqsadsiz foydalanishga va tabiatga zarar yetkazishga ko‘maklashmoqda.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-fevraldagi “2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasining “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi

salomatligini mustahkamlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to’g’risida”gi PF-6155-son Farmoniga muvofiq, noqonuniy kesilgan daraxt va butalar uchun uch yil davomida parvarishlash sharti bilan 100 tup ko’chat ekish majburiyati kiritilgan. Mazkur farmon ijrosini ta’minlash maqsadida qabul qilingan Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 22-avgustdagi “Davlat o’rmon fondiga kirmaydigan daraxtlar va butalarni ekish, parvarish qilish va ulardan foydalanish tartibini yanada takomillashtirish to’g’risida”gi 464-son qarorida kompensatsiyaviy ekish joylari, qoida tariqasida, hududlarda tashkil etilgan yashil bog’lar va yashil jamoat parklari, shuningdek, obodonlashtirish va ko’kalamzorlashtirish uchun mo’ljallangan boshqa hududlardan tanlanishi belgilangan.

Soddaroq qilib aytganda, quruvchi muayyan hududda qurilish ishlarini amalga oshirish uchun mazkur hududda mavjud bo’lgan daraxtlarni kesadi va qurilish ishlarini amalga oshiradi hamda keyinchalik yaratilgan yashil bog’larda kompensatsiya tarzida daraxtlar ekib beradi.

Bizning fikrimizcha, muayyan hududni cho’llantirish hisobiga daraxtlar ko’p bo’lgan yashil hududlarni yanada ko’kalamzorlashtirish maqsadga muvofiq emas. Shu sababli mazkur normani o’zgartirish hamda kompensatsiya evaziga ekiladigan daraxtlarni boshqa yashil hududda emas, balki kesilgan daraxtlar o’rnida ekilishini belgilash lozim. Shuningdek, kompensatsiya tarzida ekilgan daraxtlarni parvarishlash ustidan doimiy nazoratni o’rnatish mexanizmlarini ishlab chiqish kerak. Aks holda, kompensatsiya tarzida daraxt ekishdan ko’zlangan maqsadga erishib bo’lmaydi.

Davlat ekologik ekspertizasi obyektlari masalasida fikr yuritgan Y. Pirogova “atrof-muhitga ta’sir ko’rsatishga qodir bo’lgan har qanday rejalashtirilgan iqtisodiy va boshqa tadbirlar” davlat ekologik ekspertizasidan o’tkazilishi kerakligi to’g’risidagi majburiy norma bo’lishi lozimligini ta’kidlaydi [2, 142-b.].

Bizning fikrimizcha, davlat ekologik ekspertizasi obyektlariga umumiy ta’rif berish amaliyotda qonunni qo’llash bilan bog’liq muammolarni vujudga keltiradi. Xususan, vakolatli davlat organi mansabdor shaxslari tomonidan o’z vakolatlarini suiiste’mol qilish va har qanday faoliyatni davlat ekspertizasidan o’tkazishni talab qilish kabi ehtimollar kuchayadi. Bundan tashqari, davlat ekologik ekspertizasi obyektlari ro’yxati noaniqligi fuqarolar uchun ham, huquqni qo’llovchilar uchun ham qiyinchilik tug’diradi.

Bugungi kunda mamlakatimizda ekologik ekspertizani amalga oshirish subyektlari bilan bog’liq muammoli masalalar uchramoqda. Jumladan, “Ekologik ekspertiza to’g’risida”gi Qonunning 13-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq, davlat ekologik ekspertizasi O’zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo’mitasining, Qoraqalpog’iston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish qo’mitasining, viloyatlar va Toshkent shahri ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmalarining ixtisoslashgan ekspert bo’linmalari tomonidan o’tkaziladi¹.

Mazkur organlar tomonidan davlat ekologik ekspertizasini amalga oshirish holati bo’yicha statistik ma’lumotlar va mamlakatimizdagi mavjud ekologik vaziyat bir-biriga qarama-qarshi hisoblanadi.

Davlat ekologik ekspertizasi markazining statistik ma’lumotlariga ko’ra, Davlat ekologik ekspertizasi markazi tomonidan 2021-yilda 15 057 ta xulosa berilgan bo’lib, shundan 14 845 tasi ijobiy, 212 tasi salbiy; 2022-yilda jami 19 304 ta xulosa berilgan bo’lib, shundan 18 798 tasi ijobiy, 223 tasi qayta ishlash uchun qaytarilgan va 283 tasi salbiy; 2023-yilda 18 989 ta xulosa berilgan bo’lib, shundan 18 289 tasi ijobiy, 475 tasi qayta ishlash uchun qaytarilgan va 225 tasi salbiy [22].

Mazkur statistik ma’lumotlarga ko’ra, davlat ekologik ekspertiza markazlari tomonidan

¹ Izoh: Qonunchilik hujjatlariga hozirga qadar o’zgartirish kiritilmagani sababli vazirlik nomi qonundan aynan keltirildi.

kelib tushgan murojaatlarning 99 foizdan ko'piga ijobiy xulosa berilgan, ularning fikricha, amalga oshirilishi rejalashtirilayotgan faoliyat atrof-muhitga ta'sir qilmaydi. Lekin bugungi kunda mamlakatimizda mavjud ekologik vaziyat esa buning aksi ekanligiga ishora qiladi.

Ta'kidlash joizki, hozirgi ekologik vaziyat sohada qat'iy choralarni ko'rishni talab qiladi. Aks holda, ekologik inqiroz va uning oqibatlari mamlakatning xavfsizligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli davlat ekologik nazoratini amalga oshirish vakolatini mahalliy davlat hokimiyati organlari va boshqa davlat boshqaruv organlaridan mustaqil bo'lgan idora tomonidan amalga oshirilishini ta'minlash lozim. Ushbu fikrni quyidagi misol yordamida asoslashga harakat qilamiz. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi davlat muassasasi 2023-yil 20-dekabr kuni davlat ekologik ekspertizasi xulosasini olish uchun Davlat ekologik ekspertizasi markazi Toshkent shahri filialiga murojaat qilgan va markaz tomonidan 27-dekabr kuni ijobiy xulosa berilgan. Mazkur holatda Vazirlar Mahkamasining moliyaviy va strukturaviy jihatdan ta'siri mavjudligi sababli ekspertiza markazi tomonidan salbiy xulosa berilishi mumkinligini keskin kamaytiradi.

Yuqorida amalga oshirilgan tahlil asosida "Ekologik ekspertiza to'g'risida"gi Qonunning 13-moddasi ikkinchi qismini quyidagicha tahrir qilishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz: *"Davlat ekologik ekspertizasi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat ekologik nazorat inspeksiyasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat ekologik nazorat inspeksiyasi, viloyatlar va Toshkent shahri davlat ekologik nazorat inspeksiyalarining ixtisoslashtirilgan ekspert bo'linmalari tomonidan o'tkaziladi"*.

Atrof-muhitga zarar yetkazayotgan asosiy muammolardan yana biri davlat ekologik ekspertizasini amalga oshirish amaliyoti bi-

lan bog'liq. "Ekologik ekspertiza to'g'risida"gi Qonunning 20-moddasiga muvofiq, davlat ekologik ekspertizasi natijalari bo'yicha xulosa tuzilib, u davlat ekologik ekspertizasi obyektni ro'yobga chiqarish mumkinligi yoki mumkin emasligi to'g'risidagi yakunlarni o'z ichiga olgan bo'ladi.

Ya'ni ekspertiza xulosasi ijobiy yoki salbiy bo'lishi mumkin. O'tkazilgan ekologik ekspertiza xulosalari tahlili manfaatdor shaxslarga taqdim etilgan ekspertiza xulosalarining aksariyati xulosada keltirilgan muayyan talablarni bajarish sharti bilan ekspertiza markazi tomonidan ma'qullanishini ko'rsatadi.

Bizning fikrimizcha, ekspertiza xulosalari berishning ushbu amaliyoti noto'g'ri va uni deklarativ xarakterga aylantirib qo'yadi. Chunki ekspertiza xulosasining muayyan talablarni bajarish sharti bilan berilishi mazkur xulosani bergan ekspertning vujudga kelishi mumkin bo'lgan turli nizolardan xoli bo'lishiga xizmat qiladi va buni kafolatlaydi. Shu bilan birga, barcha javobgarlik manfaatdor shaxs zimmasiga yuklatiladi. Shu sababli ekspertiza xulosasini berishda obyekt qonunchilikda belgilangan talablarga javob bermagan taqdirda salbiy xulosa taqdim etish lozim. Manfaatdor shaxslar salbiy xulosada keltirilgan talablarni bajarganlaridan keyingina ijobiy xulosa berish amaliyotini joriy qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Aks holda, ekologik ekspertizaning ijobiy xulosasini olgan manfaatdor shaxslar unda keltirilgan shartlarni bajarmasligi oqibatida tabiatga katta zarar keltiradi.

Xulosalar

Yuqorida amalga oshirilgan tahlillar asosida aytish mumkinki, ekologik nazorat ta'sirchanligi uni amalga oshiruvchi vakolatli davlat organining moliyaviy va tashkiliy jihatdan to'liq mustaqilligiga bevosita bog'liq. Shu sababli boshqa davlat organlaridan mustaqil bo'lgan va to'g'ridan to'g'ri O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga bo'ysunadigan hamda o'z faoliyatida Oliy Majlis va Prezidentga hisobdor bo'lgan ekologiya sohasidagi

barcha davlat nazorati funksiyalarini o'zida jamlagan yagona davlat organini tashkil etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bundan tashqari, nazorat funksiyalari tarqoqligi uning samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shundan kelib chiqib, "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi Qonunning 9-moddasi ikkinchi qismini quyidagi tahrirda bayon qilish taklif etiladi: "Suvdan foydalanish va uni muhofaza qilish ustidan davlat nazorati O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat ekologik nazorat inspeksiyasi tomonidan qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi".

Jismoniy va yuridik shaxslarni nazorat qiluvchi organlar mansabdor shaxslarining no-qonuniy xatti-harakatlaridan himoya qilish maqsadida "Ekologik nazorat to'g'risida"gi Qonunni "Nazorat qilinadigan subyektlar fao-

liyatiga aralashuvning mutanosibligi" prinsipi bilan to'ldirish maqsadga muvofiq. Shu sababli ushbu qonunga kiritilayotgan norma-ni quyidagi tahriri taklif etiladi:

"Majburiy talablar buzilishining oldini olishga va (yoki) bartaraf etish bo'yicha jismoniy va yuridik shaxslarga nisbatan qo'llanadigan ta'sir chorasi maxsus vakolatli organ tomonidan ko'zlangan qonuniy maqsadga erishish uchun mos va yetarli bo'lishi hamda manfaatdor shaxslarga imkon qadar qiyinchilik tug'dirmasligi kerak".

Mazkur takliflarning amaliyotga joriy etilishi mamlakatimizda ekologik barqarorlikni ta'minlash, sohadagi huquqbuzarliklarning oldini olishga hamda fuqarolarning qulay atrof-muhitga ega bo'lishga oid konstitutsiyaviy huquqlarini ta'minlashga xizmat qiladi.

REFERENCES

1. Ikramov Sh.T. Ma'muriy huquq [Administrative law]. Tashkent Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, 2016, p. 507.
2. Pirogova Ye. Pravovyye i organizatsionnyye osnovy deyatel'nosti federal'nykh organov polnoy vlasti v sfere prirodopol'zovaniya i okhrany okruzhayushchey sredy [Legal and organizational foundations of the activities of federal bodies of full power in the sphere of nature management and environmental protection]. Moscow, 2010, p. 142.
3. Kolmykova A.V. Osnovnyye cherty gosudarstvennogo kontrolya (nadzora) v sfere tekhnicheskogo regulirovaniya [The main features of state control (supervision) in the sphere of technical regulation]. *Journal of Russian Law*, 2007, vol. 5.
4. Tikhomirov Yu.A. Kurs administrativnogo prava i sudoproizvodstva [Course of administrative law and legal proceedings]. Moscow, Yurinformtsentr Publ., 1998, p. 509.
5. Administrativnaya reforma v Rossii [Administrative reform in Russia]. Moscow, Yuridicheskaya firma «KONTRAKT», INFRA-M Publ., 2006, p. 45.
6. Administrativnoye pravo [Administrative law]. Tashkent, Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, 2010, p. 391.
7. Fayziyev Sh.Kh. Teoreticheskiye problemy pravovogo obespecheniya ekologicheskoy politiki Respubliki Uzbekistan [Theoretical problems of legal support for environmental policy of the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, TSIL Publ., 2004.
8. Utegenov O.D. Jamoat ekologik nazoratini huquqiy tartibga solish [Legal regulation of public environmental control]. Tashkent, Science and Technology Publ., 2011.
9. Balashenko A.S., Makarova T.I., Lizgarov V.Ye. Ekologicheskoye pravo [Environmental law]. Minsk, 2015, p. 402.
10. Sarkisov O.R. Ekologicheskoye pravo [Environmental law]. Kazan', Center for Innovative Technologies Publ., 2014, p. 335.

11. Ekologicheskoye pravo [Environmental law]. Moscow, YEGE Publ., 2006, p. 234.
12. Golichenkov A.K. Ekologicheskij kontrol', teoriya, praktika pravovogo regulirovaniya [Environmental control, theory, practice of legal regulation]. Moscow, 1992, p. 205.
13. "Conditions of the law and work of prosecution bodies in the field of ecology" Information and analytical document of the NII Academy of General Prosecutor's Office of the Russian Federation: Proceedings of the Scientific and practical conference "Ecological safety: problems, research, solutions". Seliger, 2008, p. 2.
14. Ganyukhina O.Yu. Pravoye regulirovaniye ekologicheskogo kontrolya v Rossiyskoy Federatsii [Legal regulation of environmental control in the Russian Federation]. Saratov, 2007, p. 162.
15. Suvdan unumli foydalanish davr talabidir [Efficient use of water is the need of the hour]. Available at: <https://uznature.uz/ru/site/news?id=3019>
16. Gamidullayeva L.S. Povysheniye effektivnosti gosudarstvennogo ekologicheskogo sredstva na federal'nom i regional'nom urovne [Improving the efficiency of state environmental funds at the federal and regional levels]. 2015.
17. Ne'matov J. O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy ish yuritish institutini takomillashtirish [Improving the Institute of Administrative Procedure in the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, Lesson Press, Publ. 2015.
18. Federation federal law on state control (supervision) and municipal control in the Russian Federation]. Available at: https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_358750/d265eee6ccbea0bbf4418cc8a0c7ab0ada100960/
19. Ne'matov J. Ma'muriy hujjatning qonuniyligi shartlari va ma'muriy ixtiyoridagi xatolar (diskretion organ) [Conditions for the legality of an administrative document and errors in administrative discretion (discretionary authority)]. *Review of Law Sciences*, 2020, pp. 4–9.
20. Bakhronov Sh. Organizatsionno-pravovyye osnovy ekologicheskoy ekspertizy proyektov normativnykh dokumentov [Organizational and legal bases for environmental assessment of draft regulatory documents]. Tashkent, 2023.
21. Uzakova G.Sh. Aholi punktlarida tabiiy resurslardan foydalanish va ularni muhofaza qilishning huquqiy tartibi [Legal procedure for the use and protection of natural resources in settlements]. Tashkent, 2021, p. 76.
22. Davlat ekologik ekspertizasi markazining statistik ma'lumotlari [Statistical data from the State Ecological Expertise Center]. Available at: <https://eco-service.uz/sys/statistics?dateBegin=01.01.2021&dateEnd=31.12.2021®ionId=>

Kelib tushgan / Получено / Received: 22.10.2024
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 12.12.2024
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 24.12.2024

DOI: 10.51788/tsul.rols.2024.8.4./PDOK4046

UDC: 347.132.6(045)(575.1)

NIZOLI VA O'Z-O'ZIDAN HAQIQIY BO'LMAGAN BITIMLAR: YANGI KLASSIFIKATSIYA

Usmonova Munisxon Yo'ldosh qizi,

Toshkent davlat yuridik universiteti

Fuqarolik huquqi kafedrası katta o'qituvchisi,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

ORCID: 0000-0001-6487-918X

e-mail: muniskhonusmonova@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida fuqarolik huquqining muhim instituti bo'lgan bitimlarning ahamiyati, ularning haqiqiy emas deb topilishida erk va irodaning o'rni, bitimlar haqiqiy emasligiga ko'ra tasniflanishi tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada bitimlarning haqiqiy emasligiga oid yangi klassifikatsiya ishlab chiqilgan bo'lib, unga ko'ra, ushbu yangi turlarga ajratish kazuistik emas, balki abstrakt tamoyil deb qabul qilish tavsiya etiladi. Ishlab chiqilgan klassifikatsiyani asoslash uchun bir nechta argumentlar taqdim etilgan bo'lib, ularda bugungi fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish uchun takliflar ham aks ettirilgan. Fuqarolik huquqida haqiqiy bo'lmagan bitimlar nizoli va o'z-o'zidan haqiqiy bo'lmagan bitimlarga ajratilishining asosiy sababi ularning oqibatini farqlash uchundir. Biroq nazariya va amaliyotni tahlil qilgan holda ushbu muhim asosning ahamiyatsiz ekanligi muallif tomonidan isbotlashga harakat qilingan. Shu bilan bir qatorda, maqolada bitimlarning haqiqiy emasligi xususiyati, haqiqiy emaslikning har bir holati (tarkibi)da o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan isbotlash predmeti, da'vo muddati pozitsiyasi, da'vo qilish huquqiga ega bo'lgan shaxslar doirasi, da'vo arizasida bitimni o'z-o'zidan haqiqiy emas deb topishni talab qilish huquqiga ega bo'lgan shaxslar (alohida), o'zining insofsiz harakatlari orqali bitimni o'z-o'zidan haqiqiy emas deb tasdiqlashni talab qilish va boshqalar muhokama qilingan. Maqolada taqqoslash-qiyoslash, analiz-sintez, tizimli tahlildan keng foydalanilgan.

Kalit so'zlar: bitimlar, haqiqiy bo'lmagan bitimlarning turlari, erk, iroda, nizoli va o'z-o'zidan haqiqiy bo'lmagan bitimlar, xatolik

ОСПОРИМЫЕ И НИЧТОЖНЫЕ СДЕЛКИ: НОВАЯ КЛАССИФИКАЦИЯ

Усмонова Мунисхон Юлдош кизи,

доктор философии по юридическим наукам (PhD),

старший преподаватель кафедры «Гражданское право»

Ташкентского государственного

юридического университета

Аннотация. Данная статья содержит анализ актуальности сделок, являющихся важным институтом гражданского права в Республике Узбекистан, роли свободы воли и волеизъявления при признании их недействительными, классификации сделок по признаку недействительности. В статье также была разработана новая классификация недействительности сделок, и

приведённое разделение на новые типы следует рассматривать с точки зрения принципа абстрактности, а не казуистики. В обоснование разработанной классификации приводится несколько аргументов, в которых также отражаются предложения по совершенствованию современного гражданского законодательства. Основание, по которому недействительные сделки в гражданском праве подразделяются на оспоримые и ничтожные, заключается в различии их последствий. Однако, анализируя теорию и практику, автор попытался доказать несущественность этого важного основания. Наряду с этим, в статье рассматривается природа недействительности сделок, предмет доказывания, который имеет свойство в каждом случае (составе) недействительности, обсуждаются вопросы по сроку исковой давности, кругу лиц, имеющих право требования, лиц, имеющих право требовать признания сделки ничтожной (индивидуально), из-за собственных нечестных действий и другие. При написании статьи широко использовались методы сравнения, сопоставления, анализа-синтеза и системного анализа.

Ключевые слова: сделки, виды недействительных сделок, свобода, воля, оспоримые и ничтожные сделки, ошибочность

DISPUTED AND VOID TRANSACTIONS: A NEW CLASSIFICATION

Usmanova Muniskhon Yuldosh kizi,

Senior Lecturer of the Department of Civil Law,
Tashkent State University of Law,
Doctor of Philosophy (PhD) in Law

Abstract. The article examines the significance of transactions, which are an important institution of civil law of the Republic of Uzbekistan, the role of free will and expression of will in recognizing them as void, and an analysis of the classification of transactions based on their invalidity. The article also presents a new classification of invalid contracts, which is recommended to be regarded as an abstract principle rather than a casuistic. Several arguments are provided to justify the developed classification, reflecting suggestions for improving the current civil legislation. The main reason for dividing invalid contracts in civil law into disputed and automatically void contracts is to distinguish their consequences. However, after analyzing theory and practice, the author attempts to prove that this important basis is insignificant. Additionally, the article discusses the specific nature of the void of contracts, the subject of proof in each case of void (composition), the position on the statute of limitations, the circle of persons who have the right to file a claim, individuals who have the right to demand the automatic invalidation of the contract in the claim, and others. In the article, the methods of comparison, analysis-synthesis, and system analysis were widely used.

Keywords: transactions, types of void transactions, freedom, will, disputed and void, error

Kirish

Bugungi kunda bitimlar hayotimizning ajralmas qismiga aylangan va har bir fuqarolik huquqi subyekti to'qnash keladigan eng ahamiyatli institutlardan biri hisoblanadi. Nazarimizda barchasi tartibga solingandek, huquqiy amalga oshirilayotgandek tuyuladi. Biroq haqiqiy muammolarga duch kelganimizda ushbu bitimga oid huquqiy munosabatlar to'liq hal etilmasligi yoki normalar

mavhumlikni ifodalaganini ko'rishimiz mumkin. Bitimlarda bu kabi holatlarni uchrasa-da, u erk ifodasi hisoblanadi. Bitimlarni haqiqiy emasligiga ko'ra nizoli va o'z-o'zidan haqiqiy bo'lmagan bitimlarga ajratish amaldagi O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi (bundan buyon matnda O'zR FK) bilan mustahkamlangan qolipga aylanib ulgurgan. O'zR FKning 113-moddasi 1-qismiga binoan, bitim qonunchilikda belgilab qo'yilgan asoslarga

ko'ra, sud haqiqiy emas deb topganligi sababli (nizoli bitim) yoki bunday deb topilishidan qat'i nazar, haqiqiy emas deb hisoblanadigan (o'z-o'zidan haqiqiy bo'lmagan bitim) bitimlarga ajratiladi.

Ushbu klassifikatsiya bir vaqtning o'zida samarasiz va nomaqbuldir. O'zR FKning 113–128-moddalarini tahlil qilganimizda, haqiqiy bo'lmagan bitimlarni nizoli va o'z-o'zidan haqiqiy bo'lmaganligiga ko'ra ajratishning formal xususiyatga ega ekanini va ushbu klassifikatsiyaning amaliy natija bermasligini ko'rishimiz mumkin.

Bir guruh sivilist olimlar, xususan, I. Zokirov, X. Rahmonqulov, O. Okyulov, N. Imomovlar o'zlarining asarlarida bitimlarning haqiqiylikda shaxslarning bitim tuzishga bo'lgan erki va harakati o'rtasida sababiy bog'lanish bo'lishi lozimligi borasida fikrlarini keltirib o'tishgan. O'z navbatida, bu masalaga oid ma'lumotlar zamondosh ilm namoyandalari hisoblangan Y. Taktasheva, D. Gloov, A. Belyayevlarning ilmiy maqolalarida ham ifodalgan.

Material va metodlar

Maqolada haqiqiy bo'lmagan bitimlarning turlari va ularni haqiqiy emas deb hisoblash uchun asoslar tahlil qilindi va yangi klassifikatsiya taqdim etildi. Natijada abstrakt bo'linish hosil bo'lgan bo'lsa-da, uning kauzalligi alohida holatlarni tartibga solishga qaratilgan. Bunda e'tibor berilishi lozim bo'lgan asosiy jihat bitimlar asosining mohiyati va ularning amal qilishiga ko'ra kauzal va abstrakt (mavhum) bitimlarga bo'linishidir. Umumiy qoidaga ko'ra bitimning haqiqiylik bevosita uning asosiga bog'liq. Agar kauzal bitim barcha zaruriy shartlarga amal qilgan holda tuzilgan bo'lsa-yu, lekin uning asosi bo'lmasa, bunday bitim haqiqiy emas deb hisoblanadi. Qonunda asos yuridik jihatdan ahamiyatsiz bo'lgan holatlar ko'zda tutilgan bo'lishi mumkin. Bunday bitimlar abstrakt bitimlar hisoblanadi. Abstrakt bitimlarning haqiqiylik uchun qonunda ularning abstrakt xarakteri ko'rsatilishi shart. Bank kafola-

ti ham abstrakt bitim hisoblanadi. Chunki u asosiy majburiyatga bog'liq emas. Shuningdek, maqolada taqqoslash-qiyoslash, analiz-sintez, tizimli tahlildan keng foydalanilgan.

Tadqiqot natijalari

Ko'rsatilgan tezisni tasdiqlash uchun quyidagi argumentlarni keltirish mumkin.

1. *Birinchi argument – qonun hujjatlarida nazarda tutilgan da'volar matnidagi nomuvofiqlik va bitimlarning haqiqiy emasligi xususiyati.* Nizoli bitimlarga nisbatan "haqiqiylik" prezumpsiyasi qo'llanadi: har qanday nuqson bilan tuzilgan bitim sudda da'vogar tomonidan to'liq isbotlanmaguncha haqiqiy emas deb topilmaydi. Shu bilan birga, da'voning maqsadini, ya'ni haqiqiy emaslik oqibatlarini qo'llashni sud bitimning "nuqsonlilik" faktini aniqlagandan keyingina amalga oshirish mumkin bo'ladi.

O'z-o'zidan haqiqiy bo'lmagan bitimlarga nisbatan boshqacha holat kuzatiladi, ya'ni ularga "haqiqiy emaslik" prezumpsiyasi qo'llanadi. Bunday bitimlar tuzilganidan keyin "nuqsonli" deb tan olinganligi sababli haqiqiy emasligini isbotlashning hojati yo'q. Shunga ko'ra, da'vogarning sudga murojaat qilish maqsadi bunday bitimning haqiqiy emasligi oqibatlarini qo'llashni talab qilishdir.

Shuningdek, bitimlarning haqiqiy emasligi institutini isloh qilish jarayonida qonun chiqaruvchi o'z-o'zidan haqiqiy bo'lmagan bitimni haqiqiy emas deb topish uchun da'vo arizasi berish imkoniyatini taqdim etdi. O'zR FKning 113-moddasi 3-bandidan kelib chiqadigan bunday huquq bitim tarafi bo'lmagan va uni haqiqiy emas deb topishda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatga ega bo'lgan shaxsga berilgan.

Ushbu uchinchi tomon da'vogarlarini bitimni o'z-o'zidan haqiqiy emas deb topishdan moddiy va huquqiy manfaatdor bo'lgan, huquqiy sohada bitim "noaniqlikni keltirib chiqaradigan", shuningdek, bu "kimning huquqiy holatiga ta'sir qilishi mumkinligi"ga oid bo'lgan subyektlar sifatida tushuniladi.

Albatta, qonun chiqaruvchi tomonidan kiritilgan uchinchi shaxslarning manfaatlarini himoya qilish imkoniyati (“kafolat”) ijobiy baholanishi kerak. Biroq bu imkoniyat bitimlarni nizoli va o‘z-o‘zidan haqiqiy bo‘lmaganga bo‘lish ma‘nosini ifodalamaydi. Agar sud bitimni o‘z-o‘zidan haqiqiy emas deb topish to‘g‘risidagi da‘voni rad etsa, manfaatdor tomon hali ham bitimni o‘z-o‘zidan haqiqiy emas deb hisoblab da‘vo qilishi mumkin. Bu haqda A.A. Gromov va A.V. Yegorov: “Normaning bunday tahriri “sud qarorining majburiy kuchiga shubha tug‘diradi” va sud haqiqiy emas deb topishdan bosh tortgan bitim (o‘z-o‘zidan haqiqiy emas) fuqarolik muomalasiga manfaat keltirmaydi,” – degan fikrni ta’kidlashadi [1, 51-b.].

2. *Ikkinchi qarshi argument sifatida haqiqiy emaslikning har bir holati (tarkibi)da o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lgan isbotlash predmeti ko‘rsatilishi mumkin.* Masalan, o‘z-o‘zidan haqiqiy bo‘lmagan axloqqa qarshi, ko‘zbo‘yamachilik natijasida tuzilgan, qalbaki bitimlar, voyaga yetmaganlar va muomalaga layoqatsiz shaxslarning bitimlari.

Bir qarashda qoida tariqasida sanab o‘tilgan holatlar isbot talab qilmaydi. Bitim tuzilgan paytda uni haqiqiy emas deb topish uchun asos – nuqson mavjud bo‘lganligining o‘zi qonuniy taqiqni (o‘rnatilgan tartib) buzishning yetarliligini anglatadi. Umuman bitimni haqiqiy emas deb topish huquqbuzarlik borligini anglatmaydi, haqiqiy bo‘lmagan bitimda subyektning erki qonun chiqaruvchi tomonidan nazarda tutilgan muomala layoqati doirasidan tashqariga chiqadi, shuningdek, bitim harakat va ayni damda kelishuv bo‘lishi ham mumkin, huquqbuzarlik esa boshqa hodisadir [2]. Masalan, holatlarning tavsifidan kelib chiqadigan bo‘lsak, voyaga yetmagan (6 yoshdan 14 yoshgacha) yoki muomalaga layoqatsiz shaxs bilan tuzilgan bitimda vasiylikdagi shaxsning huquqiy maqomini tasdiqlash kifoya, biroq javobgar vasiylik ostidagi shaxs bilan bitim tuzganini inkor etsa, vasiy nima qilishi kerak? Nizolashishi va isbotlashi lozim. Natijada u nizoli bitimga aylanadi.

Qalbaki bitim uchun yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan holatlar sud amaliyoti tomonidan to‘liq belgilanadi: sudlar “bitimning har bir tomoni kerakli huquqiy oqibatlarni yaratish va ushbu niyatlarni haqiqatda amalga oshirish uchun tegishli bitimni tuzish niyatida bo‘lganmi yoki yo‘qmi”, “tomonlarning voqelik harakatlari holatlarini” isbotlashi va “ularning haqiqiy irodasini” aniqlashi, “tomonlar o‘rtasidagi haqiqiy munosabatlar”ga baho berishi lozim [3].

Shu bilan bir qatorda, boshqa asoslar ham o‘ziga xos xususiyatga ega. Ba’zilar ularni amalga oshirishning haqiqiy xususiyatlariga ega bo‘ladi, bu noyob isbotlash predmetiga aylanadi, boshqalari bitim tuzilgan paytda shaxsning huquqiy maqomini tasdiqlashni talab qiladi, yana boshqalari o‘z-o‘zidan haqiqiy bo‘lib ko‘rinsa-da, nizoli bitimning predmetini tashkil etadi.

Taxminan oltita bo‘lgan nizoli bitimlar guruhida isbotlash predmetining umumiy xususiyatlarini aniqlash mutlaqo mumkin emas. Sababi o‘z-o‘zidan haqiqiy emas deb hisoblanadigan bitimning sud jarayonida isbot talab qilishi va nizoni keltirib chiqarishi mumkinligidir.

3. *Uchinchi argument bitimlar haqiqiy emasligining oqibatlari pozitsiyasi.* Shuni ta’kidlash kerakki, o‘z-o‘zidan haqiqiy bo‘lmagan va nizoli bitimlar haqiqiy emasligi oqibatlari jihatidan hech qanday farq qilmaydi. O‘zR FK 114-moddasida ham o‘z-o‘zidan haqiqiy bo‘lmagan, ham nizoli bitimlar uchun yagona oqibat, ya’ni ikki tomonlama restitutsiya (tomonlarning o‘z holatiga qaytarilishi) belgilangan. Biroq ushbu bitimlarning (ham o‘z-o‘zidan haqiqiy bo‘lmagan, ham nizoli bitimlar) ba’zi turlari boshqa tomonlar yetkazgan haqiqiy zararni to‘lashni qo‘shimcha ravishda talab qilishi mumkin (2-jadvalga qarang). Shuningdek, oz sonli tarkiblar ba’zi hollarda muayyan qonun bilan belgilangan boshqa oqibatlarni keltirib chiqarishi ham mumkin (O‘zR FK 116-moddasi). Bundan tashqari, bir nechta

asoslar ham mavjud: *konvalidatsiya* – bitimni kuchda saqlash, – bu holat O‘zR FK 117-, 119-, 122-moddalarida ko‘rsatilgan. Qalbaki va ko‘zbo‘yamachilik natijasida tuzilgan bitimlarga nisbatan esa o‘ziga xos oqibatlar mavjud. Jumladan, qalbaki bitimda yuridik ta’sirning yo‘qligi, restitutsiyani qo‘llamaslik (bu amalda bahsli nuqta), qalbaki bitim

“mutlaqo” tuzilgan bitim bo‘lmaganligi sababli bitim taraflarini davlat javobgarligiga tortish (soliq yoki jinoiy javobgarlik) (O‘zR FK 101-moddasi, 124-moddasi 1-qismi) ko‘rsatilgan. Ko‘zbo‘yamachilik natijasida tuzilgan bitimga nisbatan esa niqoblangan bitim qoidalarini qo‘llash va boshqa oqibatlar ham mavjud (1-jadval).

1-jadval

Bitim haqiqiy emasligi oqibatlari

O‘zR FK moddalari	Haqiqiy emaslik asoslari	Xarakter	Oqibat	
			Oqibatlarini belgilovchi norma havola	Oqibatni qo‘llash
116	Qonunchilik talablariga muvofiq bo‘lmagan bitimning haqiqiy emasligi	O‘z-o‘zidan / nizoli haqiqiy emas	114-modda / yo‘q	Umumiy (restitutsiya) + qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqalar
117	O‘n to‘rt yoshga to‘lmaganlar tuzgan bitim	O‘z-o‘zidan haqiqiy emas	117-modda	Restitutsiya+haqiqiy zarar+konvalidatsiya
118	O‘n to‘rt yoshdan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lganlar tuzgan bitimlar	Nizoli	117-modda	Restitutsiya+haqiqiy zarar
119	Muomalaga layoqatsizlar tuzgan bitimlar	O‘z-o‘zidan haqiqiy emas	117-modda	Restitutsiya+haqiqiy zarar+konvalidatsiya
120	Muomala layoqati cheklanganlar tuzgan bitimlar	Nizoli	117-modda	Restitutsiya+haqiqiy zarar
121	Muomala layoqatida nuqsoni bo‘lganlar tuzgan bitim	Nizoli	117-modda	Restitutsiya+haqiqiy zarar
122	Yanglishish ta’sirida tuzilgan bitim	Nizoli	114-modda	Umumiy (restitutsiya)+haqiqiy zarar (har ikki tomondan) + xarajatlar + konvalidatsiya
123	Aldash, qo‘rqitish, zo‘rlilik ishlatish natijasida tuzilgan va asoratli bitimlar	Nizoli	Yo‘q	Umumiy (restitutsiya) + zarar + kontragentga bitim predmetining tasodifiy yo‘qolishi xavfini yuklash
124	Qalbaki	O‘z-o‘zidan haqiqiy emas	Yo‘q	Restitutsiyani qo‘llamaslik, chunki qalbaki bitim aslida taraflar tomonidan amalga oshirilmaydi (sud amaliyoti,
124	Ko‘zbo‘yamachilik	O‘z-o‘zidan haqiqiy emas	Yo‘q	Niqoblangan bitim qoidalarini qo‘llash + restitutsiyani qo‘llamaslik (sud amaliyoti,
125	Yuridik shaxs huquqiy layoqatidan tashqariga chiqadigan bitim	Nizoli	Yo‘q	Umumiy (restitutsiya)

Yuqoridagi jadval nizoli va o'z-o'zidan haqiqiy bo'lmagan bitimlarni haqiqiy emaslik oqibatlariga ko'ra ajratish uchun asos

yo'qligini tasdiqlaydi. Oqibat bir guruhga mansub bo'lgan asoslarga nisbatan ham turlicha qo'llanishi mumkin.

2-jadval

Zarar va tasodifan nobud bo'lish xavfi mavjudligiga ko'ra bitimlar haqiqiy emasligiga ko'ra turlarining oqibatlari

FK moddalari	Zarar		Tasodifan nobud bo'lish xavfi
	Haqiqiy zarar	Boy berilgan foyda	
117	+	-	-
118	+	-	-
119	+	-	-
120	+	-	-
121	+	-	-
122	+	+	-
123	+	+	+

Yodda tuting: boy berilgan foyda mustaqil ravishda tarkibga kiritilmaydi, ya'ni ular zarar tarkibiga kiritiladi.

4. *To'rtinchi argument – da'vo muddati pozitsiyasi.* Shuni ta'kidlash kerakki, qonun chiqaruvchi muddatlarni to'liq tahlil qilmagan. Ma'lumki, da'vo muddati – subyektiv huquqni himoya qilish, da'vo arizasi berish muddati.

Shuningdek, O'zR FKda bitimlarning haqiqiy emasligiga oid bo'lgan alohida da'vo muddati mavjud emas. Shu sababli bitimlar bilan bog'liq nizolar kelib chiqqanda ularga nisbatan uch yillik umumiy da'vo muddati qo'llanadi. Xorijiy mamlakatlarda esa haqiqiy bo'lmagan bitimlarga nisbatan da'vo muddatini qo'llash bilan bog'liq maxsus qoidalar (masalan, Rossiya Federatsiyasi FKning 181-moddasi [4], Qozog'iston Respublikasi FKning 162-moddasi [5]) aniq belgilangan. Germaniyada umumiy va maxsus da'vo muddatlari mavjud bo'lib, maxsus da'vo muddati o'ttiz yilni tashkil etadi. Shuningdek, uy-joy va yer bilan bog'liq bo'lgan bitimlarga oid masalalarga o'n yillik da'vo muddati tatbiq etiladi (GFKning 195–197-moddalari) [6]. RF Fuqarolik kodeksining 181-moddasi 1-qis-

mida nizoli bitimlardan farqli ravishda o'z-o'zidan haqiqiy bo'lmagan bitimlarga nisbatan uzaytirilgan o'n yillik da'vo muddati nazarda tutilgan [4]. Sababi o'z-o'zidan haqiqiy bo'lmagan bitimlar tuzilgan vaqtdan boshlab haqiqiy emas deb hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda "bitimning haqiqiy emasligi oqibatini qo'llash yuzasidan sudga da'vo qilish muddati uch yil bo'lganligi, ba'zi holatlarda fuqarolarning huquq va manfaatlariga zid keladi", deb hisoblashadi. Biroq oddiygina voyaga yetmaganlar tomonidan tuzilgan bitimlarni olaylik: 6 yoshdan 14 yoshgacha va 14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan shaxslar tomonidan tuzilgan bitimlarning birinchisiga 10 yillik, ikkinchi holatga esa 1 yillik da'vo muddatining qo'llanishi qanchalar adolatli? Har bir asos o'ziga xosdir, shu sababli maxsus va umumiy da'vo muddati pozitsiyasi asoslarning har biri uchun zarur. Yoki barcha asoslar uchun umumiy da'vo muddatining qo'llanishida ham kamchilik borday tuyuladi [7]. Jumladan, qonun va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga zid ravishda tuzilgan bitim har qanday holatda ham haqiqiy emasdir yoki axloqqa zid ravishda tuzilgan bitimlarni ham misol tariqasida keltirishimiz mumkin.

5. *Beshinchi argument – da’vo qilish huquqiga ega bo’lgan shaxslar doirasi.* O’z-o’zidan haqiqiy bo’lmagan bitimlarda, nizoli bitimga nisbatan da’vo qilish huquqiga ega bo’lgan shaxslar doirasi kengroqdir. Shunday qilib: 1) nizoli bitimlarni haqiqiy emas deb topish da’vosi bilan bitim taraflari yoki qonunda ko’rsatilgan boshqa shaxs sudga murojaat qilishga haqli; 2) o’z-o’zidan haqiqiy bo’lmagan bitimlarni haqiqiy emas deb topish uchun da’vo qilish huquqiga bunday tan olinishidan qonuniy manfaatdorligini isbotlagan har qanday shaxs egadir; 3) bitim tarafi yoki qonunda ko’rsatilgan boshqa shaxs o’z-o’zidan haqiqiy bo’lmagan bitim uchun oqibatlarini qo’llashni talab qilishga haqli. Shu bilan birga, kim tan olishni talab qilish huquqiga ega bo’lsa, oqibatlarini qo’llashni ham talab qilish huquqiga ega.

Ko’rib turganingizdek, o’z-o’zidan haqiqiy bo’lmagan bitim uchun da’vogarlar doirasi kengroq. Bundan tashqari, sudning oqibatlarini qo’llash imkoniyati istisno qilinmaydi: sud o’z tashabbusi bilan o’z-o’zidan haqiqiy bo’lmagan bitim oqibatlarini jamoat manfaatlarini himoya qilish va qonunda nazarda tutilgan boshqa holatlarda qo’llashga haqli [8].

Umuman olganda, qoidalarda aks ettirilgan mezon juda noaniq va tushunish qiyin. Bunda da’vogarga nisbatan aniq talab mavjud emas, ya’ni uning “qonunda ko’rsatilgan boshqa shaxs” yoki “qonuniy manfaatdor bo’lgan boshqa shaxs” ekanligi aniq ochib berilmagan.

6. *Nihoyat, oltinchi va so’nggi argument eng kichik belgilar, masalan, qarshi da’vo arizasida bitimni o’z-o’zidan haqiqiy emas deb topishni talab qilish huquqiga ega bo’lgan shaxslar, o’zining insofsiz harakatlari orqali bitimni o’z-o’zidan haqiqiy emas deb tasdiqlashni talab qilishi va boshqalar.*

Shunday qilib, aks ettirilgan mezonlarning hech biri o’z-o’zidan haqiqiy bo’lmagan va nizoli bitimga aniq ajratishga imkon bermaydi. Faqat bitta mezonga asoslanib farqlash (oqibatni qo’llash) natija bermaydi. Haqiqiy

bo’lmagan bitimlarning amaldagi tasnifi samarasiz ekanligini tan olish kerak.

Bundan tashqari, shuni ta’kidlash kerakki, O’zR FKda mavjud bo’lgan tasnif kazustik prinsipga asoslanadi: bitimlar haqiqiy emasligining qat’iy elementlarining har biri o’ziga xos hayot modelini tartibga soladi, shuning uchun bitimlarni o’z-o’zidan haqiqiy bo’lmagan va nizoli bitimga bo’lish ma’nosizdek tuyuladi.

Tadqiqot natijalari tahlili

Ilmiy doiralarda haqiqiy bo’lmagan bitimlarning turli tasniflari taklif etiladi, ammo ularning aksariyati kazual xarakterga ega. Shu munosabat bilan, haqiqiy bo’lmagan bitimlarni abstrakt ravishda farqlashga urinishlarni ko’rib chiqish maqsadga muvofiq. Jumladan, D.M. Genkin bitimlarning haqiqiy emasligiga ko’ra quyidagi turlarini aniqlagan [9, 19-, 193-, 192-b.]:

1) *o’z-o’zidan haqiqiy bo’lmagan bitimlar.* Bunda sud ularning o’z-o’zidan haqiqiy emasligini *ex officio* deb tan oladi va agar sud bitimning nuqsoniga e’tibor bermasa, “uni haqiqiy emas deb topish uchun manfaatdor tomon ushbu bitimga alohida e’tiroz bildirmasligi kerak – u nuqson mavjudligini ko’rsatish bilan cheklanishga haqli”;

2) *da’vo natijasida o’z-o’zidan haqiqiy emas deb topilgan bitimlar.* Sudda bitimga e’tiroz bildirgan jismoniy shaxsning manfaati tufayli bitim haqiqiy emas deb topiladi hamda da’vo muddatining o’tkazib yuborilishi ham bitimni haqiqiy deb hisoblashga olib keladi.

Ko’rsatilgan ikkita bitim guruhining ahamiyatli emasligi bitimning paydo bo’lishi yoki uning mavjudligi uchun zarur bo’lgan elementlar yo’qligi bilan bog’liq;

3) *so’zlarning qat’iy ma’nosiga ahamiyat bermasdan tuzilgan bitimlar.* Yuzaga kelishi noma’lum bo’lgan hodisalar shartnoma sharti sifatida bitimga kiritilsa, haqiqiy emas deb topiladi. Shuningdek, haqiqiy vaziyat yuzaga kelgan sababli bitim haqiqiy hisoblanmaydi. Masalan, to’xtatib turish sharti bajarilmasa, bitim haqiqiy emas deb hisoblanadi;

4) *nisbatan haqiqiy bo'lmagan bitimlar*. Ushbu bitim faqat ma'lum bir shaxs uchun haqiqiy emas deb hisoblanadi. Masalan, kreditorlar tomonidan qarzdorning uchinchi shaxslar bilan bitimlariga e'tiroz bildirish [10].

D.V. Dojdev haqiqiy bo'lmagan bitimlarni quyidagicha tasnifladi [11, 148–149-b.]:

1) *o'z-o'zidan haqiqiy bo'lmagan bitimlar*. Ular mavjud bo'lishi va tuzatilishi kerak bo'lmagan bitimlardir, ya'ni yuridik jihatdan ahamiyatga ega emas;

2) *haqiqiy bo'lmagan bitimlar*. Ular kutilgan samarani keltirmaydigan bitimlardir. Tomonlar aslida bajarilishi shart bo'lmagan majburiyatni bajarishga harakat qilishadi. Boshqacha qilib aytganda, majburiyatni bajarishga intiladilar, lekin bu majburiyat aslida bajarilishi kerak emas (solsolution indebiti). Shu sababdan ham bu bitimlar haqiqiy hisoblanmaydi. Agar tomonlar yetishmayotgan elementlarni to'ldirsa, bunday bitim keyinchalik to'liq kuchga ega bo'lishi mumkin.

3) *qaytariladigan bitimlar*. Ular haqiqiy hisoblanadi, lekin tomonlardan birining iltimosiga binoan ularning ta'siri bekor qilinishi mumkin va barcha huquqlar bitim tuzilgunga qadar mavjud bo'lgan holatga qayta tiklanadi;

4) *nizoli bitimlar*. Bunday bitimlar natijasida yuzaga kelgan samara tomonlardan birining iltimosiga binoan sud qarori bilan haqiqiy emas deb topilishi mumkin [12].

Yuqoridagi ikkita tasnif juda qiziqarli tarzda taqdim etilgan, ammo ular bitim haqiqiy emasligining turli tomonlarini tushunishga asoslangan, shuning uchun tasniflar biroz amaliy emasdek tuyuladi. Tasniflashlarning asosi amaliyotda qo'llash uchun juda mavhumdir.

S.V. Gerasimovskiyning fikricha esa, uch turdagi haqiqiy bo'lmagan bitimlar mavjud [13, 22-b.]:

1) haqiqiy emasligi qonun bilan belgilangan o'z-o'zidan haqiqiy bo'lmagan bitimlar;

2) qonunda nazarda tutilgan hollarda haqiqiy emasligi sud tomonidan belgilangan o'z-o'zidan haqiqiy bo'lmagan bitimlar;

3) haqiqiy emasligi manfaatdor shaxsning tashabbusi bilan sud tomonidan belgilanadigan nizoli bitimlar.

“Ushbu tasniflash imkoniyati qonunga zid (noqonuniy, qonunga xilof) bitimlar va boshqa kamchiliklari tufayli haqiqiy emasligi aniqlangan bitimlar bilan bog'liq”, – deb yozadi S.V. Gerasimovskiy. Muallif tomonidan berilgan tasniflash bitim tuzilmasligini (boshqa mualliflarning tasniflari bilan solishtirganda) hisobga olmaydi. Ushbu tasnif kazuistik prinsipga to'g'ri keladi, ya'ni ma'lum bir bitimning haqiqiy emasligi belgilanadi.

A.M. Shirvindt nemis ta'limotida mavjud bo'lgan nuqsonga asoslangan haqiqiy bo'lmagan bitim turlarini keltiradi [14, 150–151-b.]:

1) *o'z-o'zidan haqiqiy bo'lmagan bitimlar* (Nichtigkeit). Bunda bitimning kamchiliklari (nuqsonlari) mavjud bo'lib, ular tufayli huquqiy oqibatlar yuzaga kelmaydi yoki hatto bitimning tarkibi ham shakllanmagan bo'ladi (o'z-o'zidan haqiqiy bo'lmaganlik mavjud bo'lmaganlikka tengdir);

2) *nizoli bitimlar* (Anfechtbarkeit). Ushbu bitimda huquqiy oqibatlar yuzaga kelishini istisno etmaydigan va u yoki bu tarzda bartaraf etilishi mumkin bo'lgan kamchiliklar mavjud bo'ladi;

3) *haqiqiy emas, ya'ni nuqsonli bitimlar* (Ungültigkeit). Bitimning nuqsonlari tufayli yuzaga keladigan huquqiy oqibatlarining yo'qligini tavsiflaydi;

4) *samarasiz bitimlar* (Unwirksamkeit). Bunda har qanday sababga ko'ra oqibatlarining yo'qligini ko'rsatadi;

5) *mavjud emaslik* (Nichtexistenz). Bu bitim belgilariga mos keladigan faktning yo'qligini bildiradi.

Ko'rinib turibdiki, bitimning haqiqiy emasligi uchun erk va irodani ifoda etish hali ham muhim, chunki haqiqiy emaslik hodisasi dastlab irodadagi nuqson, shaxsning erkidan tashqari asosda shakllangan.

Xulosalar

Yuqoridagi olimlarning fikrlarini mulohaza qilgan holatda quyidagi tasnifni taklif qilamiz:

1) boshqa tomonning irodasini qasddan o'zgartirish bilan bog'liq bitimlar – aldash, zo'ravonlik, tahdid, shuningdek, asoratli bitim ta'siri ostida tuzilgan;

2) irodasi mavjud bo'lgan qonuniy kuchga ega bo'lmagan bitimlar (huquqiy layoqatdan tashqarida qilingan) – muomalaga layoqatsiz shaxslarning bitimlari, voyaga yetmaganlarning bitimlari (14 yoshgacha);

3) ruxsat yoki rozilik olinmagan holda tuzilgan bitimlari – oilaviy, korporativ, bitimlar muomala layoqati cheklangan shaxslar, voyaga yetmaganlar (14 yoshdan 18 yoshgacha);

4) vaqtinchalik iroda yo'qligi bilan tuzilgan bitimlar – “muomala layoqatida nuqsoni bor” shaxsning bitimlari (FKning 121-moddasi);

5) noto'g'ri harakatlar:

– ixtiyoriy xato tufayli, masalan, har ikki tomonning savodsizligi tufayli sodir etilgan jiddiy xatolik (matn terish xatosi, noto'g'ri chop etish);

– jiddiy xato ta'siri ostida tuzilgan bitimlar;

6) boshqa asoslar.

Taqdim etilgan tasnif asosli hisoblana-di, chunki u bitimning haqiqiy emasligining mohiyatiga asoslanadi. Tasniflash kazuistik

emas, abstrakt usulga ega va hamma uchun tushunarli sanaladi.

Qonun chiqaruvchi ushbu tasnifni Fuqarolik kodeksida aks ettirishi va har bir asos uchun o'ziga xos oqibatlarini ta'minlashi tavsiya etiladi. Masalan, tomonlar shartnomani o'zgartirish yoki bekor qilish orqali ixtiyoriy xato tufayli bitimlarni tuzatishi mumkin yoki tomonlarning har biri tomonlardan birining (ikkalasining) huquqiy savodsizligi mavjudligini tasdiqlashi mumkin. Boshqa tarafning irodasini qasddan o'zgartirishi bilan tuzilgan bitimlar uchun ma'naviy zararni qonun kuchi bilan qoplashni belgilash tavsiya etiladi. Ba'zi huquqbuzarliklar uchun qarindoshning bilish prezumpsiyasini o'rnatish kerak (masalan, muomala layoqati cheklanganligi, muomala layoqatida nuqsoni bor shaxslar yoki pulga muhtoj qarindoshidan kvartirani sotib olish).

Haqiqiy bo'lmagan bitimlar turlarini o'rganish natijalariga ko'ra, amaldagi huquqiy bo'linish kazuistik prinsipga asoslangan, ushbu ajratish mantiqiy asosga ega emas va amalda samarasiz degan xulosaga kelishimiz mumkin. Turli tadqiqotchilar tasniflash yuzasidan o'z fikr-mulohazalarini taklif qilishadi, bundan muallif ham istisno emas. Shu munosabat bilan muallif erk va irodani ifodalash asosida haqiqiy bo'lmagan bitimlarni tasniflashni taklif qildi, bu esa kazuistik emas, abstrakt tamoyilga asoslanadi va bitimning haqiqiy emasligi mohiyatini ochib beradi.

REFERENCES

1. Prakticheskiy kommentariy k pervomu i vtoromu blokam izmeneniy v Grazhdanskiy kodeks RF: naiboleye vazhnyye momenty [Practical commentary on the first and second blocks of amendments to the Civil Code of the Russian Federation: the most important points]. Moscow, Aktion-Media Publ., 2014, pp. 21, 176.
2. Usmonova M. Legal consequences of non-authenticity of transactions. *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences*, 2022, vol. 2/5, pp. 1020–1028.
3. Larson D.A., Usmonova M.Y.Q. The Genesis of the Development of Transactions Concluded as a Result of Defects in the Ability to Behave. *Central Asian Academic Journal of Scientific Research*, 2022, vol. 2/2, pp. 182–193.

4. Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik kodeksi [Civil Code of the Russian Federation]. Available at: https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_5142/
5. Qozog'iston Respublikasi Fuqarolik kodeksi [Civil Code of the Republic of Kazakhstan]. Available at: https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=1006061
6. Germaniya Fuqarolik kodeksi [German Civil Code]. Available at: https://www.gesetze-im-internet.de/englisch_bgb/
7. Topildiev B., Khursanov R., Usmonova M. Trust management agreement Property and prospects for its development in the Republic of Uzbekistan. *European Journal of Molecular & Clinical Medicine*, 2022, vol. 7/3, pp. 3199–3205.
8. Munishxon U. The role of forensic psychiatric examination in invalidating an agreement entered into by a citizen who does not understand the significance of his actions or is unable to control them. *Review of Law Sciences*, 2020, vol. 3, pp. 146–152.
9. Genkin D.M. Otnositel'naya nedeystvitel'nost' sdelok [Relative invalidity of transactions]. *Civil Law Bulletin*, 2014, vol. 4, pp. 190–220.
10. Usmonova M. The concept of the transaction concluded as a result of defects in the ability to behave and its peculiarities. *The American Journal of Political Science Law and Criminology*, 2021, vol. 3/11, pp. 74–80.
11. Dozhdev D.V. Rimskoye chastnoye pravo [Roman private law]. Moscow, Norma, INFRAPUBL., 2021, p. 784. Available at: <https://znanium.com/catalog/product/1194772>
12. Kizi U.M.Y. Civil-Legal status of persons incapable of actual treatment. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 2021, vol. 3/11, pp. 86–91.
13. Gerasimovskiy S.V. K voprosu o nedeystvitel'nykh sdelkakh i ikh kvalifikatsii [On the issue of invalid transactions and their qualification]. *Domestic Jurisprudence*, 2016, vol. 10/12, pp. 21–23.
14. Shirvindt A.M. Znachenie vymysla v rimskom prave [The Importance of Fiction in Roman Law]. Moscow, Statut Publ., 2013, p. 255. Available at: <https://biblioclub.ru/index.php?page=book&id=452607>
15. Taktasheva R.Yu. Drobnyye i tselostnyye ob'yekty bukhgalterskogo ucheta [Fractional and integral accounting objects]. *Financial and Accounting Consultations*, 2019, vol. 5, pp. 18–23. Available at: <https://journal.fbk.ru/page5939736.html>
16. Rahmonqulov H.R. Fuqarolik huquqining subyektlari [Subjects of civil law]. Tashkent, TSIL, Publ. 2008, p. 168.
17. Imomov N.F. Fuqarolar (Jismoniy shaxslar) huquqiy statusining ayrim jonlari [Certain aspects of the legal status of citizens (individuals)]. *International Conferences*, 2022, vol. 1/7, pp. 20–25. Available at: <http://erus.uz/index.php/cf/article/view/237>
18. Koryogdiyev B.U. Bitimni haqiqiy emas deb topish va uning oqibatlarini qo'llash fuqarolik huquqlarini himoya qilish vositasi sifatida [Recognizing a transaction as invalid and applying its consequences as a means of protecting civil rights]. *Orienss*, 2021, vol. 11. Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/bitimni-haqiqiy-emas-deb-topish-va-uning-oqibatlarini-qo-llash-fuqarolik-huquqlarini-himoya-qilish-vositasi-sifatida>
19. Imomniyozov D.B. Yuridik shaxslarning umumiy yig'ilish qarorlarini haqiqiy emas deb topishning huquqiy oqibatlari [Legal consequences of declaring decisions of the general meeting of legal entities invalid]. *Orienss*, 2022, vol. 1. Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/yuridik-shaxslarning-umumiy-yig-ilish-qarorlarini-haqiqiy-emas-deb-topishning-huquqiy-oqibatlari>

Kelib tushgan / Получено / Received: 23.09.2024
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 03.12.2024
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 24.12.2024

DOI: 10.51788/tsul.rols.2024.8.4./XMUF5720

UDC: 347.6:004(045)(575.1)

ЦИФРОВЫЕ ОБЪЕКТЫ И МЕСТО ОТКРЫТИЯ НАСЛЕДСТВА: ВЫЗОВЫ ТРАНСГРАНИЧНОГО НАСЛЕДОВАНИЯ

Шаймарданова Дилафруз Дилмуратовна,
самостоятельный соискатель
Ташкентского государственного юридического университета
ORCID: 0009-0004-7743-5915
e-mail: shaimardanova.dd@gmail.com

Bundan tashqari, virtual makonda mualliflik huquqini himoya qilish bilan bog'liq javobgarlik masalalari ko'plab yuridik jihatlarini o'z ichiga oladi. Misol uchun, mualliflik huquqi buzilishida kim javobgar: platforma, foydalanuvchi yoki uchinchi tomon? Ba'zi mamlakatlar qonunlarida platformalar uchun foydalanuvchilar tomonidan yuklangan kontent uchun javobgarlikni cheklavchi prinsipalar mavjud bo'lsa, boshqa mamlakatlarda esa platformalar ma'lum bir darajada javobgar bo'lishi lozim. Shundan kelib chiqib, fikrimizcha, hozirgi kunda bu muammoni hal qilish uchun yangi huquqiy yondashuvlar va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish zarurati mavjud. Platformalarning javobgarligini belgilash, innovatsion huquqiy mexanizmlar yaratish va mualliflik huquqlarini samarali himoya qilish masalalari kelajakda asosiy huquqiy ishlar bo'lib qoladi.

Tadqiqot natijalari tahlili

Virtual muhitda mualliflik huquqini buzganlik uchun javobgarlikni belgilash masalasiga alohida to'xtalib o'tamiz. Virtual ma-

konda mualliflik huquqini buzganlik uchun javobgarlik masalasi raqamli muhitda huquqiy nizolarni hal qilish bilan bog'liq bo'lib, xalqaro va milliy qonunchilikda muhim o'rin tutadi. Internetda mualliflik huquqini buzishning keng tarqalishi va bu jarayondagi murakkabliklar ko'pincha huquqiy javobgarlikni aniqlashni qiyinlashtiradi [18]. Bizning fikrimizcha, virtual makonda mualliflik huquqini buzganlik uchun javobgarlik masalasi xalqaro miqyosda hal etilishi muhim, chunki internet global tarmoq bo'lib, kontent bir mamlakattan boshqasiga osongina tarqaladi. Bugungi kunda xalqaro darajada mualliflik huquqini himoya qilish va javobgarlikni belgilashda bir qator xalqaro huquqiy shartnomalar, kelishuvlar va tashkilotlar mavjud bo'lib, ammo ularning barchasi ham samarali emas.

Mana shunday xalqaro miqyosda mualliflik huquqini himoya qilish va uni buzganlik uchun javobgarlik belgilashda muhim o'rin tutadigan xalqaro konvensiyalardan biri Bern konvensiyasi hisoblanadi. Bern konvensiyasi (1886) mualliflik huquqini xalqaro miqyosda himoya qiluvchi eng muhim hujjatlardan biridir va uning virtual makonda mualliflik huquqini buzganlik uchun javobgarlikni belgilashdagi roli juda katta ahamiyatga ega. Bern konvensiyasi o'z vaqtida asosan an'anaviy asarlar: kitoblar, musiqa, drama va badiiy asarlar uchun yaratilgan bo'lsa ham, u raqamli kontent, ya'ni virtual makondagi asarlar uchun ham amal qiladi. Konvensiyaning xalqaro tamoyillari internet va boshqa raqamli platformalar orqali mualliflik huquqlari buzilishining oldini olishda muhim rol o'ynaydi. Konvensiya mualliflarga minimal huquqlarni ta'minlaydi, bu raqamli dunyoda asarlarning noqonuniy nusxalari tarqalishi va noqonuniy foydalanishga qarshi himoya choralarini belgilaydi [19]. Virtual makonda asarlarning ruxsatsiz tarqatilishi, qayta ishlanishi yoki nusxalanishi holatlarida Bern konvensiyasi a'zo mamlakatlardan huquqni himoya qilish talabini qo'llashni talab qiladi. Mualliflik huquqlari Bern konvensiyasiga

ko'ra avtomatik tarzda himoyalaniadi, bu esa virtual makondagi raqamli asarlar uchun ayniqsa muhim. Masalan, internetda joylashtirilgan kontent (rasm, matn, video va boshqalar) avtomatik ravishda mualliflik huquqi bilan himoyalangan hisoblanadi. Bu huquq buzilishi holatlarida kontent egasi xalqaro darajada himoyaga ega bo'lishi mumkin.

Ammo ushbu konvensiyaning virtual muhitda mualliflik huquqini buzganlik uchun javobgarlikni belgilash va himoya qilishda bir qator kamchiliklari bor. Bern konvensiyasi asosan an'anaviy mualliflik huquqlariga qaratilgan bo'lib, zamonaviy kontent, jumladan, kompyuter dasturlari, multimedia, onlayn o'yinlar yoki ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqatilgan kontentni to'liq qamrab olmaydi. Bugungi kunda yaratilayotgan kontent turlari Bern konvensiyasining qamrovidan tashqarida bo'lganlarini ko'p uchratishimiz mumkin. Masalan, sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan asarlar uchun mualliflik huquqlari qanday qo'llanishi haqida konvensiyada aniq qoidalar mavjud emas. Bundan tashqari, Bern konvensiyasi global miqyosda qo'llansa ham, har bir davlat o'z qonunchiligiga ega bo'lib, bu qonunchilik Bern konvensiyasiga mos kelmasligi mumkin. Bu esa mualliflik huquqi buzilishi holatlarida javobgarlikni ta'minlash va belgilashni qiyinlashtiradi. Ba'zi davlatlarda Bern konvensiyasi tamoyillarini to'liq amalga oshirish qiyin. Qonunlar turlicha bo'lgani sababli bir davlatda himoyalangan huquq boshqa davlatda buzilgan bo'lsa, tegishli javobgarlikni qo'llashda qiyinchiliklar yuzaga keladi. Ayrim davlatlarda Bern konvensiyasiga amal qiluvchi qonunlar mavjud bo'lsa-da, sud tizimlari sustligi yoki resurslar yetishmasligi tufayli mualliflik huquqlari buzilishi holatlarida samarali va tezkor choralar ko'rish qiyinlashadi. Shu bilan birgalikda, ushbu konvensiyada mualliflik huquqini buzganlik uchun javobgarlikni belgilashda internetning global tabiatiga moslashuvda qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Virtual makonda huquqbuzarlik bir mamlakatda sodir bo'lsa,

kontent boshqa mamlakatlarda ham qonuniy yoki noqonuniy tarqalishi mumkin [19]. Bern konvensiyasi bu holatlarda samarali himoya choralarini ta'minlashda cheklangan. Bugungi kunda kontent bir nechta platformalar orqali (masalan, ijtimoiy tarmoqlar, veb-saytlar va raqamli ommaviy axborot vositalari) tarqalsa, Bern konvensiyasi bunday ko'p platformali tizimlarda mualliflik huquqlarini samarali himoya qilish uchun moslashmagan.

Bern konvensiyasi mualliflik huquqlarini xalqaro miqyosda himoya qilishda muhim ahamiyatga ega bo'lsa-da, virtual makonda bu huquqlarni samarali himoya qilish va huquqbuzarliklar uchun javobgarlikni belgilashda qator kamchiliklarga ega [20]. Texnologik rivojlanish va raqamli makonning o'ziga xos xususiyatlari Bern konvensiyasi qoidalariga to'liq mos kelmaydi, shuning uchun zamonaviy huquqiy mexanizmlar va texnologik vositalar bilan uni to'ldirish zarur. Yangi turdagi kontentlar va raqamli asarlar uchun maxsus qoidalar va himoya mexanizmlari ishlab chiqilishi talab etiladi.

TRIPS kelishuvi (Trade-Related Aspects of Intellectual Property Rights) xalqaro miqyosda mualliflik huquqini himoya qilish va uni buzganlik uchun javobgarlik belgilashda muhim o'rin tutadigan kelishuvlardan biri hisoblanadi. Ushbu kelishuv 1994-yilda Jahon Savdo Tashkiloti tomonidan qabul qilingan bo'lib, xalqaro savdoda intellektual mulk huquqlarini, jumladan, mualliflik huquqlarini himoya qilishga qaratilgan [21]. Bu kelishuv global miqyosda mualliflik huquqi himoyasini mustahkamlashni va savdo tizimida intellektual mulk bilan bog'liq nizolarni hal etish imkoniyatini yaratishni maqsad qilgan. TRIPS kelishuvi mualliflik huquqlarini xalqaro miqyosda, jumladan, virtual makonda himoya qilishda muhim rol o'ynaydi. Kelishuv raqamli kontent, internetdagi materiallar, dasturlar va boshqa raqamli asarlarni himoya qilishda qo'llanadi. TRIPS kelishuviga muvofiq, a'zo davlatlar mualliflik huquqlarini buzganlik holatlarida qat'iy jazo choralari-

ni belgilash va huquqbuzarliklarni samarali aniqlash majburiyatini oladilar. Shuningdek, a'zo davlatlar mualliflik huquqlarini buzgan shaxslarga nisbatan moliyaviy jarimalar, jinoy jazo choralarini qo'llash imkoniyatiga ega bo'lishlari kerak [22]. Bu kelishuvga muvofiq, huquqbuzarliklar aniqlanganda, davlatlar ularni tezkorlik bilan bartaraf etishlari va huquqbuzarlarga nisbatan javobgarlik belgilashi lozim. Ushbu kelishuvning ijobiy jihati shundaki, davlatlarga mualliflik huquqlarini bir xil darajada himoyalashni talab qiladi, bu esa virtual makonda xalqaro mualliflik huquqlarini samarali himoya qilish hamda huquqbuzarlarga javobgarlikni belgilash imkoniyatini yaratadi.

Ammo TRIPS kelishuvining virtual makonda mualliflik huquqini buzganlik uchun javobgarlikni belgilashdagi ba'zi kamchiliklari mavjud. TRIPS kelishuvi 1994-yilda qabul qilingani sababli u tez rivojlanayotgan texnologiyalar va raqamli muhitning hozirgi imkoniyatlarini to'liq hisobga olmaydi. Shu sababli zamonaviy mualliflik huquqi buzilishi holatlarini, masalan, raqamli qaroqchilik, striming xizmatlaridan ruxsatsiz foydalanish, internetda avtomatik nusxalash kabi texnologik usullarni yetarlicha tartibga solmaydi [23]. Bundan tashqari, TRIPS rivojlangan davlatlarga nisbatan rivojlanayotgan davlatlar uchun ko'proq qiyinchiliklar tug'diradi. Raqamli mualliflik huquqlarini himoya qilish uchun katta moddiy va texnik resurslar talab etiladi, rivojlanayotgan davlatlarda esa bu resurslar yetishmaydi. Natijada kam rivojlangan davlatlar TRIPS talablarini to'liq bajara olmay, ularda mualliflik huquqi buzilishi holatlari keng tarqalib ketishi mumkin. Asosiy kamchiliklardan yana biri TRIPS kelishuviga binoan har bir davlat o'z qonunchiligini intellektual mulk huquqlarini himoya qilishga moslashtirishi kerak, ammo virtual makonda huquqbuzarliklarni aniqlash va bartaraf etishda kelishuv aniq boshqaruv mexanizmlarini taklif qilmaydi [24]. Bu esa ayniqsa xalqaro platformalarda yoki anonim ravishda amalga oshi-

rilgan huquqbuzarliklarni aniqlash va javobgarlik belgilashni qiyinlashtiradi.

Fikrimizcha, internet va raqamli texnologiyalar jadal rivojlanib borayotgan bir paytda TRIPS kelishuvi yangilanishga muhtoj bo'lib qoldi. Zamonaviy muammolarni hal qilish uchun unda raqamli muhit va texnologik rivojlanishni to'liq qamrab oladigan yangi talablar, zamonaviy javobgarlik shakllari va ijro etish mexanizmlarini yaratish talab etiladi. Yuqorida keltirilgan kamchiliklar TRIPS kelishuvi doirasida mualliflik huquqini virtual makonda himoya qilishni qiyinlashtiradi va xalqaro miqyosda mualliflik huquqlarining samarali himoya qilinishiga hamda huquqbuzarlik uchun javobgarlik belgilanishiga to'sqinlik qiladi.

Yana xalqaro miqyosda mualliflik huquqi buzilishining oldini olish, himoya qilish hamda javobgarlikni belgilashda Jahon Intellektual Mulk Tashkiloti (WIPO) tomonidan 1996-yilda qabul qilingan WIPO mualliflik huquqi shartnomasi (WIPO Copyright Treaty, WCT) va WIPO ijro etish va fonogrammalar shartnomasi (WIPO Performances and Phonograms Treaty, WPPT) muhim o'rin tutadi. Ushbu shartnomalar mualliflik huquqlarini zamonaviy texnologiyalar, ayniqsa, internet va raqamli media vositalarida himoya qilishga ma'lum ma'noda yordam beradi. Mualliflik huquqi shartnomasi (WCT) mualliflik huquqining an'anaviy himoya tizimini raqamli muhitga kengaytiradi. Bu shartnoma asarlarning internetda tarqatilishi, ko'chirilishi va raqamli formatda qayta ishlanishi kabi faoliyatlarni tartibga soladi. Mualliflik huquqi shartnomasiga muvofiq, mualliflar o'z asarlarining ruxsatsiz ko'chirilishi, nusxalash va tarqatilishdan himoya qilish huquqiga ega. Shu orqali raqamli muhitda mualliflar o'z asarlaridan keladigan daromadlarni himoya qila olishadi. Ijro etish va fonogrammalar shartnomasi esa (WPPT) ijrochilar va fonogrammalar huquqlarini raqamli muhitda himoya qilishga qaratilgan. Bu shartnoma ijrochilar va fonogramma ishlab chiqaruvchilarining o'z mah-

sulotlari ustidan nazorat qilish imkoniyatlarini oshiradi. Mualliflik huquqi shartnomasi hamda ijro etish va fonogrammalar shartnomasi raqamli huquqlarni boshqarish texnologiyalaridan foydalanishni qo'llab-quvvatlaydi [25]. Raqamli huquqlarni boshqarish texnologiyalari mualliflarga o'z asarlarining qanday foydalanilayotganini kuzatib borish imkonini beradi. Masalan, raqamli huquqlarni boshqarish orqali asarlarni ruxsatsiz yuklab olish yoki nusxalashdan himoya qilish mumkin.

Ammo raqamli huquqlarni boshqarish texnologiyalari bilan himoyalangan kontentni maxsus dasturlar yoki usullar orqali chetlab o'tish mumkin. Bunday zaifliklar ko'p hollarda huquqbuzarliklarning davom etishiga sabab bo'ladi, chunki tajribali foydalanuvchilar raqamli huquqlarni boshqarishni ataylab chetlab o'tish yo'llarini topishlari mumkin. Bugungi kunda raqamli huquqlarni boshqarish texnologiyasi himoyasini aylanib o'tish ko'plab internet platformalarida oson va ommaviylashib ketgan [26]. Bu esa raqamli huquqlarni boshqarish tizimining mualliflik huquqlarini himoya qilishdagi samaradorligini kamaytiradi. Shu bilan birgalikda, raqamli huquqlarni boshqarish texnologiyalari milliy qonunchilik va xalqaro shartnomalarga muvofiq ravishda har xil ishlatilishi mumkin. Shu sababli xalqaro bozorda mualliflik huquqlarini to'liq himoya qilishda raqamli huquqlarni boshqarish tizimi yetarli himoya vositasi bo'la olmaydi. Bundan tashqari, ushbu tizimda xalqaro qo'llash va moslikdagi cheklovlar ham mavjud. Har bir davlatda raqamli huquqlarni boshqarish texnologiyalarini qo'llashga oid qonunchilik farq qiladi. Ba'zi davlatlar raqamli huquqlarni boshqarish texnologiyasi himoyasini to'liq qo'llab-quvvatlaydi, ayrimlarida esa cheklovlar mavjud. Bu esa xalqaro miqyosda raqamli huquqlar tizimini samarali boshqarishni qiyinlashtiradi.

Fikrimizcha, virtual makonda mualliflik huquqini himoya qilish – zamonaviy texnologik rivojlanish va internet imkoniyatlari

kengaygan bir davrda nihoyatda muhim va murakkab masalaga aylandi. Bugungi kunda internet foydalanuvchilari kontentni yaratish, ulashish va ko'chirishda sezilarli erkinlikka ega, ammo bu erkinlik ko'pincha mualliflik huquqlarini poymol qilish darajasiga olib keladi. Ko'plab foydalanuvchilar mualliflik huquqining mazmuni va ahamiyatini to'liq anglamaydi yoki bu borada yetarli darajada huquqiy savodxon emas. Shu sababli huquqiy ta'lim va savodxonlikni oshirish davlat va xususiy sektor uchun ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lishi kerak, deb hisoblayman.

Shu bilan birga, mualliflik huquqini himoya qilishda zamonaviy texnologiyalar, ayniqsa, sun'iy intellekt va avtomatlashtirilgan monitoring tizimlari imkoniyatlaridan samarali foydalanish zarur. Afsuski, ko'plab mamlakatlarda, jumladan, milliy qonunchiligimizda bu kabi texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari hali to'liq yo'lga qo'yilmagan yoki ularning qo'llanishi juda cheklangan. O'zbekiston va boshqa davlatlar ushbu texnologik vositalarni keng joriy etish orqali virtual makonda mualliflik huquqini buzganlarni aniqlash va javobgarlikka tortish imkoniyatlarini oshirishlari lozim, deb hisoblaymiz.

Bundan tashqari, xalqaro hamkorlik va huquqiy standartlarni uyg'unlashtirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Mualliflik huquqi bilan bog'liq muammolar ko'pincha transchegaraviy xarakterga ega bo'lib, turli davlatlarning qonunchilikdagi farqlari samarali himoya va javobgarlik masalalariga to'siq bo'lib kelmoqda. Virtual makonda huquqbuzarliklarni bartaraf etish uchun xalqaro darajadagi yondashuv va hamkorlikni rivojlantirish talab etiladi.

Fikrimizcha, virtual makonda mualliflik huquqi himoya qilinishini kuchaytirish uchun quyidagi yo'nalishlarda ishlash muhim: huquqiy savodxonlikni oshirish, texnologik yechimlarni rivojlantirish, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish va zamonaviy qonunchilikni ishlab chiqish. Bu chora-tadbirlar ijodiy faoliyatni rivojlantirish, intellektual mulkni himoya

qilish va raqamli iqtisodiyotning barqaror o'sishiga katta hissa qo'shishi mumkin.

Xulosalar

Mazkur maqola virtual makonda mualliflik huquqi buzilishi, uni aniqlash va javobgarlik masalalariga bag'ishlangan bo'lib, bugungi raqamli jamiyatda mualliflik huquqini himoya qilish dolzarbligi va muammolarini tahlil qiladi. Internetning keng yoyilishi va raqamli texnologiyalarning rivojlanishi, mualliflik huquqiga rioya etishni qiyinlashtiradi, shu bilan birga, kontentni noqonuniy tarqatish, ko'chirish va o'zgartirish kabi huquqbuzarliklarni keltirib chiqaradi. Virtual makonning global xarakteri va huquqiy mexanizmlarning transchegaraviy muammolarni hal qilishdagi noaniqligi huquqbuzarliklarni aniqlash va bartaraf etish jarayonini murakkablashtiradi. Shundan kelib chiqib, quyidagi takliflarni amaliyotga joriy etish o'rinli bo'ladi:

birinchidan, mualliflik huquqi buzilishini aniqlash uchun sun'iy intellekt asosida ishlaydigan ilg'or monitoring tizimlarini joriy qilish zarur. Ushbu tizimlar avtomatik ravishda mualliflik huquqi buzilgan kontentni aniqlab, platformalarga tezkor choralar ko'rish imkonini beradi;

ikkinchidan, mualliflik huquqiga ega bo'lgan kontentni ro'yxatdan o'tkazish va uni

tarqatishni kuzatib borish uchun blokcheyn texnologiyalaridan foydalanish mumkin. Bu nafaqat mualliflik huquqlarini himoya qiladi, balki tranzaksiyalar va foydalanish jarayonlari shaffofligini ta'minlaydi;

uchinchidan, virtual makonda mualliflik huquqini himoya qilish uchun xalqaro darajada yagona standartlarni ishlab chiqish va ularni barcha davlatlarda joriy qilish muhimdir. Xalqaro tashkilotlar va davlatlararo keli-shuvlar orqali mualliflik huquqini himoya qilishni kuchaytirish lozim;

to'rtinchidan, foydalanuvchilar orasida mualliflik huquqi va uning buzilishi oqibatlari to'g'risida keng qamrovli ma'lumot beruvchi dasturlarni yo'lga qo'yish zarur. Maxsus kurslar, o'quv dasturlari va onlayn vositalar orqali raqamli savodxonlik darajasini oshirish foydalanuvchilarni qonuniy faoliyatga yo'naltiradi;

beshinchidan, onlayn platformalar mualliflik huquqi buzilishining oldini olish uchun yanada mas'uliyatli bo'lishi kerak. Ular foydalanuvchilar tomonidan yuklangan kontentni avtomatlashtirilgan ravishda tekshirish tizimlarini joriy qilish va mualliflik huquqi buzilishining oldini olish uchun maxsus qoidalarga rioya qilishlari lozim.

REFERENCES

1. Boyle J. Foucault in Cyberspace: Surveillance, Sovereignty, and Hardwired Censors. *U. CIN. L. REV.*, 2021, no. 66, p. 177.
2. Zarsky T.Z. Information Privacy in Virtual Worlds: Identifying Unique Concerns Beyond the Online and Offline Worlds. *N.Y.L. SCH. L. REV.*, 2021, no. 49, pp. 231, 235.
3. Malhotra P. How Big Data and IP Intersect Big Data is big business—but who owns it? *Intellectual Property an ALM Supplement to Corporate Counsel*, 2016, Available at: https://www.keker.com/Templates/media/files/Articles/How%20Big%20Data%20and%20IP%20Intersect_Malhotra.pdf
4. Lu M. Intellectual Property Protection of Big Data. *Journal Of Physics: Conference Series* 2020, no. 1693, p. 012012.
5. Gervais D. Exploring the Interfaces Between Big Data and Intellectual Property Law. *Journal of Intellectual Property, Information Technology and Ecommerce Law*, 2019, no. 10.
6. Frequently Asked Questions: Copyright. Available at: https://www.wipo.int/copyright/en/faq_copyright.html

7. Baker S. Big Data and Math. Thenumerati.net, 2012 Available at: <http://thenumerati.net/?postID=845&big-data-and-math>
8. Rungrojtanakul Ch. Legal Protection of Sui Generis Databases. 2005. Available at: <https://digitalcommons.law.ggu.edu/cgi/viewcontent.cgi?article=1015&context=theses>
9. H.R.3531 - Database Investment and Intellectual Property Antipiracy Act of 1996 104th Congress. 1995-1996. Available at: <https://www.congress.gov/bill/104th-congress/house-bill/3531/>
10. Case C-46/02 Fixtures Marketing Ltd v. Oy Veikkaus Ab [2004] ECR I-10396 (ECJ); Case C-203/02 British Horseracing Board v. William Hill Organization [2004] ECR I-10415 (ECJ); Case C-338/02 Fixtures Marketing Ltd v. Svenska Spel AB, Fixtures Marketing v. Svenska Spel [2004] ECR I-10497 (ECJ); Case C-444/02 Fixtures Marketing Ltd v. Organismos prognostikon agonon podosfairou AE (OPAP) [2023] ECR I-10549.
11. Colston C. Sui Generis Database Right: Ripe for Review? *Journal Of Information Law & Technology*, 2021, no. 3.
12. Reichman J.H., Samuelson P. Intellectual Property Rights in Data? 50 *Vanderbilt Law Review*, 2020, no. 50, pp. 52–166.
13. Derclaye E. The Legal Protection Of Databases - A Comparative Analysis. 2008.
14. Herr R.E. Is The Sui Generis Right A Failed Experiment. 2018, p. 122.
15. Hugenholtz B. Data Property: Unwelcome Guest in the House of IP. *Kritika. Essays on Intellectual Property*.
16. Derclaye E. The Database Directive, in *EU Copyright Law - A Commentary*. Pp. 298–354.
17. Sumet R. Thailand Stays on USTR's Priority watch list. Available at: <http://brslawyers.com/news/news/109>
18. A history of Copyright in the United States. Association of Research Libraries. Available at: <http://www.arl.org/focus-areas/copyright-ip/2486-copyrighttimeline>
19. "Supplementary Information Section 182 of the Trade Act of 1974 (Trade Act) (19U.S.C.2242)" Federal Register The Daily Journal of the United States Government. Available at: <https://www.federalregister.gov/articles/2011/09/28/2011-24985/section-306-monitor-ing-of-paraguay-memorandum-of-understanding-on-intellectual-property-rights>
20. Executive office of the president of the United States of America The United States Trade Representative (USTR). 2016 Special 301 Report. Available at: <https://ustr.gov/sites/default/files/USTR-2016-Special-301-Report.pdf>
21. Department of Intellectual Property. Digital Economy (Copyright Law propel Digital Economy). Available at: https://www.ipthailand.go.th/index.php?option=com_content&view=article&id=1618:digital-economy-10-000-400000&catid=8:news&Itemid=332
22. Global Intellectual Property Center. U.S. Chamber of Commerce. What is Special 301 Report. Available at: <http://www.theglobalipcenter.com/initiatives/trade/special-301/>
23. International Intellectual Property Alliance. International Intellectual Property Alliance (IIPA) Representing The U.S. Copyright-Based Industries for 30 Years. IIPA. Available at: <http://www.iipawebsite.com>
24. Greif D. International Trademark Association. Thailand: Recent Government Crackdowns on counterfeit. Available at: http://www.inta.org/INTA_Bulletin/Pages/THAILANDRecentGovernmentCrackdownsonCounterfeits.aspx
25. Legal Protection of Digital Information. Digital Law Online: Mere Conduits. Available at: <http://digital-law-online.info/lpdi1.0/treatise35.html>
26. Xfinity. What Are Internet Service Providers? (ISPs). Available at: <http://www.xfinity.com/resources/internet-service-providers.html>

Kelib tushgan / Получено / Received: 05.11.2024
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 13.12.2024
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 24.12.2024

DOI: 10.51788/tsul.rols.2024.8.4./BZGJ4744

UDC: 347.9(045)(575.1)

FUQAROLIK SUD ISHLARINI YURITISH PRINSIPLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Xabibullayev Davlatjon Yulchiboyevich,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Fuqarolik protsessual va iqtisodiy
protsessual huquqi kafedrası mudiri,
yuridik fanlar doktori, professor
ORCID: 0000-0002-8355-3983
e-mail: davlat.xabibullayev@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada fuqarolik sud ishlarini yuritish prinsiplari, ularni takomillashtirish masalalari ilmiy-nazariy tahlil etilgan. Unda fuqarolik sud ishlarini yuritishda qonuniylik prinsipi tushunchasi va uning ahamiyati bo'yicha huquqshunos olimlarning fikrlari tahlil etilib, ushbu prinsip tushunchasiga ilmiy ta'rif ishlab chiqilgan. Xususan, fuqarolik protsessini boshlab beruvchi, harakatga keltiruvchi erkin huquq prinsipi hamda taraflarning tortishuvchilik prinsipi va ularning sud amaliyotida tutgan o'rni, bu boradagi huquqshunos olimlarning fikr-mulohazalari ilmiy nazariy tahlil etilgan va xorijiy davlatlar fuqarolik protsessual qonunchiligi qiyosiy o'rganib chiqilib, ilmiy-nazariy xulosalar va takliflar berilgan. Maqolada muallif protsessual huquqlarni suiiste'mol qilmaslik masalasiga alohida e'tibor qaratgan va uning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlagan. Shuningdek, protsessual huquqlarni suiiste'mol qilish nimalarda namoyon bo'lishi tahlil qilinib, bu boradagi ilmiy-nazariy tushunchalar o'rganilgan va ushbu tushunchaga ilmiy ta'rif ishlab chiqilgan. Shu bilan birga, fuqarolik sud ishlarini yuritish prinsiplari bo'yicha xorijiy davlatlar, jumladan, Yaponiya, Gretsiya, Bolgariya, Germaniya Konstitutsiyalari hamda Rossiya, Estoniya, Armaniston, Ukraina, Belarus, Qozog'iston, Qirg'iziston Respublikalari fuqarolik protsessual qonunchiliklari milliy fuqarolik protsessual qonunchiligi bilan qiyosiy o'rganilgan. Fuqarolik sud ishlarini yuritish prinsiplarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: fuqarolik sud ishlarini yuritish prinsiplari, qonuniylik, erkin huquq (dispozitivlik), protsessual huquqlarni suiiste'mol qilmaslik, odil sudlov, sudya, tortishuvchilik, taraflarning tenghuquqliligi

ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРИНЦИПОВ ГРАЖДАНСКОГО СУДОПРОИЗВОДСТВА

Хабибуллаев Давлатжон Юлчибоевич,
доктор юридических наук, профессор,
заведующий кафедрой «Гражданское процессуальное
и экономическое процессуальное право»
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В данной статье проведён научно-теоретический анализ принципов гражданского судопроизводства и вопросов их совершенствования. В ней анализируются взгляды учёных-правоведов на понятие принципа законности и его значение в гражданском судопроизводстве, выработано научное понятие этого принципа. Кроме того, проведён научно-теоретический анализ принципа свободного права, иницирующего гражданский процесс и движущего им, принципа состязательности сторон и их роли в судебной практике, а также сравнительный анализ гражданского процессуального законодательства зарубежных стран, даны соответствующие научно-теоретические выводы и предложения. В статье автор уделил особое внимание вопросу незлоупотребления процессуальными правами и определил его специфику. Также был проанализирован аспект проявления злоупотребления процессуальными правами, изучены научно-теоретические концепции по этому вопросу и разработано научное определение этого понятия. При этом изучались принципы гражданского судопроизводства в конституциях Японии, Греции, Болгарии, Германии и гражданском процессуальном законодательстве таких стран, как Россия, Эстония, Армения, Украина, Беларусь, Казахстан, Кыргызстан, в сравнении с национальным гражданским процессуальным законодательством. Выдвинуты научно-теоретические выводы, предложения и рекомендации, направленные на совершенствование принципов гражданского судопроизводства.

Ключевые слова: принципы гражданского судопроизводства, законность, право на свободу (диспозитивность), ненадлежащее использование процессуальных прав, правосудие, судья, спор, равноправие сторон

ISSUES OF IMPROVING THE PRINCIPLES OF CIVIL PROCEEDINGS

Khabibullaev Davlatjon Yulchiboyevich,
Head of the Department of Civil Procedural
and Economic Procedural Law,
Tashkent State University of Law,
Doctor of Science in Law, Professor

Abstract. This article provides a scientific and theoretical analysis of the principles of civil proceedings and issues of their improvement. It analyzes the views of legal scholars on the concept of the principle of legality in civil proceedings and its significance and develops a scientific definition of the concept of this principle. In particular, the principle of free law, which initiates and drives the civil process, as well as the principle of adversarial proceedings of the parties and their role in judicial practice, the opinions of legal scholars in this regard are scientifically and theoretically analyzed, and the civil procedural legislation of foreign countries is comparatively studied, scientific and theoretical conclusions and proposals are given. In the article, the author pays special attention to the issue of non-abuse of procedural rights and identifies its specific features. In addition, the manifestations of abuse of procedural rights were analyzed, scientific and theoretical concepts in this regard were studied, and a scientific definition of this concept was developed. At the same time, the principles of civil proceedings in the constitutions of foreign countries, including Japan, Greece, Bulgaria, Germany, as well as the civil procedural legislation of Russia, Estonia, Armenia, Ukraine, Belarus, Kazakhstan, and the Kyrgyz Republic, have been studied in comparison with national civil procedural legislation. Scientific and theoretical conclusions, proposals, and recommendations aimed at improving the principles of civil proceedings have been put forward.

Keywords: principles of civil procedure, legality, free law (dispositivity), non-abuse of procedural rights, fair trial, judge, adversarial, equality of parties

Kirish

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 13-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa ajralmas huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi. Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi.

Bu esa fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning eng samarali, ta'sirchan va demokratik usullaridan biri bo'lgan sud orqali himoyani mumkin qadar kengaytirish, sud tizimining demokratik asoslarini isloh qilish va yanada chuqurlashtirish, sud ishlarining to'g'ri va o'z vaqtida ko'rib chiqilishini ta'minlash, fuqarolarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirishga qaratilgan sud-huquq islohotlarini amalga oshirishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq, har kimga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlarining hamda boshqa tashkilotlarning, ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari va harakatsizligi ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi (55-modda).

Mazkur konstitutsiyaviy norma O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 3-moddasida ham o'z ifodasini topgan. Unga ko'ra, har qanday manfaatdor shaxs buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqi yoxud qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatin himoya qilish uchun fuqarolik sud ishlarini yuritish to'g'risidagi qonunchilikda belgilangan tartibda sudga murojaat qilishga haqli.

"Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari" prinsipiga asosan ishlab chiqilgan va yettita ustuvor yo'nalishdan iborat 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasini "Mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi prinsiplarini taraqqiyotning eng asosiy va za-

rur shartiga aylantirish" nomli II yo'nalishida ham fuqarolarning odil sudlovga erishish darajasini oshirish masalalari nazarda tutilgan.

Odil sudlovni amalga oshirishda asosiy qoidalar sifatida prinsiplarning o'rni beqiyos. Biroq ta'kidlash joizki, sud amaliyotida fuqarolik sud ishlarini yuritish prinsiplarini amaliyotga tatbiq etishda nazariy va amaliy muammolar ham kelib chiqmoqda. Chunki fuqarolik sud ishlarini yuritish prinsiplarini takomillashtirish, sud ishini yuritishning protsessual mexanizmini takomillashtirish maqsadida fuqarolik protsessual qonunchilikka yangi prinsiplarni kiritish davr talabidir.

Material va metodlar

Tadqiqot doirasida huquqiy fanlarda ilmiy metodlar: tizimli-huquqiy tahlil, taqqoslash, qiyosiy-huquqiy, induksiya va deduksiya kabi usullar qo'llangan.

Tadqiqot natijalari

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 15-moddasida ko'rsatilganidek, O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi. Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'radilar.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, to'g'ridan to'g'ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonuni 8-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarining so'zsiz ustuvorligi tan olinadi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, to'g'ridan to'g'ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etadi. oliy yuridik kuchga ega va O'zbekiston Respublikasining butun hududida qo'llanadi.

O'zbekiston Respublikasining qonunlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi asosida va uni ijro etish uchun qabul qilinadi hamda uning normalari va prinsiplariga zid bo'lishi mumkin emas.

Ushbu prinsip to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 2019-yil 24-maydagi "Sudning hal qiluv qarori haqida"gi 12-sonli qarorida ham tushuntirish berilgan. FPK 14-moddasiga muvofiq, sudning hal qiluv qarori qonunga asoslangan bo'lishi lozim. Boshqa qonun hujjatlari-ning qo'llanishiga, agar ular O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga zid bo'lmasagina, yo'l qo'yiladi.

Shu o'rinda ishlarning amaldagi qonunchilik asosida hal qilinish prinsipi, qonuniylik prinsipining mazmun-mohiyatini anglatmaydimi degan haqli savol tug'ilishi mumkin. Albatta, yo'q. Chunki ishlarning amaldagi qonunchilik asosida hal qilinish prinsipi asosan sud ishlarini yuritishda qaysi qonun normalarini tatbiq etish lozimligini anglatga, qonuniylik prinsipi mazmunan unga nisbatan kengroqdir. Fuqarolik sud ishlarini yuritish vazifalaridan biri ham qonuniylikni mustahkamlashdir. Ishlarning amaldagi qonunlar asosida hal qilinish prinsipi sudlarning nizolarni hal etishda qaysi qonunlarga amal qilishini tartibga soladi, zero qonuniylik prinsipi nafaqat sud, balki fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlarning barcha ishtirokchilari uchun ham majburiydir. Qonuniylik prinsipi fuqarolik protsessida ishda ishtirok etuvchi shaxslarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Fuqarolik protsessual kodeksi va boshqa qonun hujjatlariga aniq rioya etishlari va ularning talablarini bajarishlari shartligini bildiradi.

Shunday ekan, qonuniylik prinsipi jamiyat hayotining barcha jabhalarida amal qiladigan konstitutsiyaviy prinsiplardan biri hisoblanadi. Qonuniylik prinsipi odil sudlovni amalga oshirishni, huquqni to'g'ri qo'llashni, sud hal qiluv qarorining qonuniy, asosli va adolatli chiqarilishini, yuqori instansiya sudlari tomo-

nidan quyi sudlarning hal qiluv qarorlarining qonuniyligini tekshirib chiqishni ta'minlab beradi.

Qonuniylik prinsipi ayni paytda keng mu-nozarali va muhokamali mavzudur. Negaki, bugungi kunga kelib sudyalarning o'rtasida katta raqobat yuzaga kelmoqda va bunday holatlarda qonun normalari sudyalarning ixtiyoriga binoan tanlanadigan va sharhlanadigan ko'rinishda bo'lib qolmoqda. Umumhuquqiy va tarixiy jihatdan esa buning teskarisi bo'lib, sudyalarning qonun chiqaruvchi tomonidan qabul qilingan qonun normasini real vaziyatga nisbatan to'g'ri qo'llab, uni jamoatchilikka tushuntirish vazifasini bajarishgan. Lekin hozirgi kunga kelib shunday holatlarning guvohi bo'lishimiz mumkinki, ba'zi sudyalarning tomonidan qonun normalarini qo'llash va tushuntirish umumhuquq prinsiplarini ham cheklashga sabab bo'lmoqda [1].

Fuqarolik sud ishlarini yuritishda qonuniylik prinsipi to'g'risida ko'plab huquqshunos olimlar o'z qarashlarini ilgari surishgan. Xususan, M.K. Treushnikov fikriga ko'ra, qonuniylik prinsipi – huquqning majburiy xulq-atvor qoidasi mazmunini belgilab beruvchi asoslantirilgan rahbariy g'oyalardir. Fuqarolik protsessual huquqida qonuniylik prinsipi sudlarning fuqarolik ishlari bo'yicha odil sudlovni amalga oshirishda faoliyatni tartibga solishga yo'naltirilganligi bilan izohlanadi [2].

I.M. Zaysevning fikricha, qonuniylik prinsipi sud va fuqarolik protsessining boshqa ishtirokchilarining huquqiy holatini, ishni ko'rib chiqish va hal qilishni, fuqarolar, tashkilotlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishni tartibga solib turadi [3]. Ushbu fikrga qo'shilgan holda A.S. Fedina qonuniylik prinsipi – fuqarolik sud ishlarini yuritishda qonuniy hal qiluv qarori chiqarish hamda ularning ijrosini ta'minlashda huquqiy nizolarni hal qilishning qat'iy tartibini belgilab berishini ta'kidlaydi. Uning fikricha, fuqarolik protsessida qonuniylik prinsipini o'rganishning dolzarbligi, birinchidan, sud faoliyatida inson huquq va erkinliklarining ustuvorligi-

ni ta'minlovchi ushbu prinsipning zamona-viy qarashlari bilan o'rganish, ikkinchidan, sud-huquq islohotlari jarayonida mazmuni o'zgartirilgan fuqarolik protsessining boshqa prinsiplarini tatbiq etish orqali uni amalga oshirish shartliligi bilan izohlanadi [4].

A.O. Dolgopyatning fikricha, "qonuniylikni barcha qonun hujjatlariga rioya qilish, deb tushunadigan bo'lsak, fuqarolik protsessidagi qonuniylik esa nafaqat qonun hujjatlariga qat'iy rioya qilish, balki qonuniy harakatlarni amalga oshirish va qonunda belgilangan huquq va majburiyatlarga amal qilish, ularni hurmat qilishni ham anglatadi [5].

Boshqa huquqshunos olimlarining fikriga ko'ra, "Qonuniylik prinsipi – populyar, ya'ni umumiy, ommaviy. Uni barcha huquq sohalarida uchratish mumkin, chunki barcha huquq sohalarining farqi turlicha bo'lsa-da, ularni birlashtirib turadigan yagona jihat mavjud – ularga qat'iy rioya qilish lozimligi. Bunday talab bo'lmasa, ular jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lmasdan, yo'qolib ketadi yoki huquq sohasining boshqa tarmoqlariga qo'shilib ketishi mumkin"[6].

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib aytish mumkinki, qonuniylik prinsipi tashkiliy xususiyatga ega bo'lgan umumhuquqiy prinsip bo'lib, fuqarolik sudlari tomonidan ishlarni fuqarolik protsessual normalariga qat'iy amal qilgan holda ko'rib chiqish va fuqarolik moddiy huquq normalariga rioya qilgan holda qaror qabul qilish majburiyatini ifodalaydi. Qonuniylik prinsipi fuqarolik protsessi ishtirokchilari tomonidan qonunlarga qat'iy va so'zsiz rioya qilish va ijro etishni, fuqarolik ishlarini o'z vaqtida tayyorlash va ko'rishni, sud majlisidagi tartibbuzarlarga nisbatan protsessual majburlor choralari qo'llashni, asossiz berilgan arizalarni qaytarish, rad etish, ish yuritishni to'xtatib turish yoki tugatish, arizani ko'rmasdan qoldirish, sud jarayonining barcha ishtirokchilari tomonidan moddiy va protsessual huquq me'yorlariga bir xilda qat'iy rioya qilinishini, fuqarolik ishi qonuniy hal etilishini ta'minlaydi.

Qonuniylik prinsipining ahamiyati yana sud qarorlarini apellyatsiya, kassatsiya, taf-tish tartibida tekshirishda ham yaqqol namoyon bo'ladi. Chunki ba'zi holatlarda quyi sudlar tomonidan yo'l qo'yilgan kamchiliklar, qonun buzilishlari yuqori sudlar tomonidan ushbu qarorlarning o'zgarishiga yoki bekor bo'lishiga olib keladi. Bu esa fuqarolarning huquq va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilishning samarali tizimi joriy etilganligidan dalolat beradi.

Yangi qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi Qonunining 8-moddasi "Qonuniylik prinsipi" deb nomlanib, unga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida odil sudlov qonunga muvofiq holda amalga oshiriladi.

Biroq O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining "Fuqarolik sud ishlarini yuritish prinsiplari" deb nomlangan 2-bobida qonuniylik alohida prinsip sifatida o'z ifodasini topmagan. Bu borada xorijiy davlatlar fuqarolik protsessual qonunchiligiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, masalan, Qozog'iston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 6-moddasi "Qonuniylik prinsipi" deb nomlanadi [7].

Bizning fikrimizcha, qonuniylik prinsipining sud ishlarini yuritishdagi tutgan o'rni va ahamiyatidan kelib chiqqan holda uni fuqarolik protsessual qonunchiligida alohida modda sifatida rasman kiritilishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Chunki mazkur prinsip O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 15-moddasida, Jinoyat kodeksining 4-moddasida, Jinoyat-protsessual kodeksining 11-moddasida va boshqa huquq sohalarining mustaqil prinsipi sifatida mustahkamlangan. Qolaversa, qonuniylik prinsipi xalqaro huquqiy prinsip hisoblanadi. Qaysi bir huquqiy demokratik davlatni olmaylik, albat-ta, shu yerda qonuniylik prinsipi amal qiladi. Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev juda to'g'ri ta'kidlaganidek, "Qonun ustuvorligi – bu davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari chiqarayotgan hujjatlar, mansabdor shaxslarning

xatti-harakatlari faqat va faqat Konstitutsiya hamda qonunlarga muvofiq bo'lishi shart, deganidir" [8].

Qonun ustuvorligi, shuningdek, shaxsga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqini ta'minlaydi. Shuning uchun ham turli xalqaro tashkilotlar, tadqiqot markazlari tomonidan tuziladigan reytinglarda qonun ustuvorligiga alohida e'tibor qaratiladi. Jumladan, The World Justice Project xalqaro nohukumat tashkiloti dunyo bo'yicha har yili maxsus "Qonun ustuvorligi indeksi" yuritadi. "Transformatsiya indeksi", "Bertelsman xalqaro fondi", Jahon banki tomonidan yuritiladigan Davlat boshqaruvi sifati indekslarida qonun ustuvorligi farovonlikni ta'minlovchi ko'rsatkichlardan biri sifatida qayd etiladi [9].

Darhaqiqat, qonuniylik prinsipining fuqarolik protsessual qonunchiligida alohida modda sifatida rasman mustahkamlanishi sud ishlarini yuritishda qonun ustuvorligini, fuqarolik protsessi subyektlarining bir xilda qonunga bo'ysunishini, sudyalarning mustaqilligi prinsipini ta'minlaydi. Shunday ekan, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining "Fuqarolik sud ishlarini yuritish prinsiplari" deb nomlangan 2-bobiga qonuniylik prinsipi to'g'risida yangi prim modda kiritish davr talabidir. Fuqarolik protsessual qonunchilikda ushbu prinsipning alohida norma sifatida mustahkamlanishi odil sudlovni amalga oshirishda qonun ustuvorligini ta'minlashga, sud qarorlarining qonuniy, asosli va adolatli bo'lishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari tahlili

Fuqarolik sud ishlarini yuritishda erkin huquq prinsipi (dispozitivlik) muhim o'rin tutadi. Chunki ushbu prinsip ishtirok etuvchi shaxslarga ishni qo'zg'atish, bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o'tish va ushbu bosqichning yakunlanishi jarayonidagi moddiy va protsessual huquqlardan foydalanish va amalga oshirishga imkon yaratadi.

Huquqshunos olim Sh.Sh. Shoraxmetovning fikriga ko'ra, "erkin huquq moddiy huquq hamda uni himoya qilish vositalari bo'lgan protsessual huquq me'yorlarini ishlatish huquqidir" [10].

A.V. Minashkin esa erkin huquq prinsipi moddiy va protsessual huquqlarni ishda ishtirok etuvchi shaxslar, birinchi navbatda, taraflar o'rtasida taqsimlanishidir deb hisoblaydi [11].

T.T. Aliyevning fikriga ko'ra, fuqarolik sud ishlarini yuritishda erkin huquq prinsipi – bu fuqarolik protsessual huquqi subyektlarining o'z moddiy va protsessual huquqlaridan erkin foydalanishida sud, prokuratura va boshqa davlat, jamoat tashkilotlarining faol ko'maklashuvi asosida mazkur huquqlarini erkin amalga oshirishidir [12].

R.A. Antoshishin fikricha, erkin huquq prinsipiga va fuqarolik ishlari umumiy qoidasiga muvofiq, ishda ishtirok etuvchi shaxslar tashabbuslari ta'siri ostida qo'zg'atiladi, rivojlantiriladi, o'zgartiriladi, bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o'tadi va o'z xohishiga ko'ra tugatiladi [13].

T.Y. Abova: "erkin huquq prinsipi fuqarolik protsessual huquqining boshqa prinsiplarini ham harakatga keltiruvchi asos hisoblanadi va u fuqarolik protsessining barcha bosqichlarida taraflarning tashabbusi bilan amalga bo'ladi" – deb ta'kidlaydi [14].

Yuqoridagi huquqshunos olimlar fikrlariga qo'shilgan holda shuni aytish mumkinki, erkin huquq prinsipi bu fuqarolik protsessini boshlab beruvchi, boshqa prinsiplarni harakatga keltiruvchi, ularga rahbarlik vazifasini bajaruvchi prinsipdir. Fuqarolik protsessual huquqda erkin huquq prinsipi o'zining yoki boshqa shaxslarning buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqlari yoxud qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida fuqarolik protsessini vujudga keltirish, harakatlantirish va tugatish bilan bog'liq bo'lgan protsessual huquqlardan foydalanish erkinligidir.

Erkin huquq prinsipi faqat protsessual huquq normalarida emas, balki moddiy huquq normalarida (FK 9-moddasi) ham o'z aksini topgan.

Hozirgi kunda sud amaliyotida erkin huquq (dispozitivlik) prinsipini fuqarolik protsessual qonunchilikda aniq normada berilmaganligi ushbu prinsipni amalda qo'llashda turli xil muammolarni keltirib chiqarmoqda. Bu borada boshqa davlatlarning fuqarolik protsessual qonunchiligini o'rganadigan bo'lsak, ularda ushbu prinsip yaxlit bir alohida normada prinsip sifatida mustahkamlangan. Masalan, Belarus Respublikasi FPKning 18-moddasi [15], Ukraina Respublikasi FPKning 13-moddasi [16], Estoniya Respublikasi FPKning "Ish yuritishning umumiy prinsiplari" deb nomlangan 1-bobi 4-moddasi [17], Armaniston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 12-moddasida Erkin huquq prinsipi alohida prinsip sifatida mustahkamlangan [18].

Yuqoridagi xorijiy davlatlar tajribasidan kelib chiqqan holda FPKning 2-bobiga yangi prinsip sifatida "Erkin huquq (dispozitivlik) prinsipi"ni kiritish maqsadga muvofiq.

Fuqarolik protsessida tortishuvchilik prinsipi sud ishlarini yuritishda amal qiladigan maxsus prinsiplardan biri hisoblanadi. Tortishuvchilik prinsipi erkin huquq prinsipi bilan birgalikda taraflarning huquqlarini himoya qilish, obyektiv haqiqatni aniqlash, ishda sud faoliyatining muvaffaqiyati uchun katta ahamiyatga ega hamda protsessual huquq va majburiyatlarning amalga oshirilishida davlat va jamoat yordamini ta'minlaydi.

Fuqarolik protsessida tortishuvchilik butun protsess davomida da'vogar va javobgarlarning huquqiy bahslashuvi shaklida ro'y berishida ifodalanadi. Taraflar o'z talab va e'tirozlarni isbotlash uchun sudga dalillar taqdim etadilar va tushuntirishlar beradilar. Ularning tushuntirishlari, fikr va xulosalari og'zaki eshitiladi. Fuqarolik ishiga izohlar yozma ravishda taqdim etilgan bo'lsa ham, suddagi ish materiallari og'zaki ravishda tek-

shiriladi. Sud majlisida og'zaki tekshirilgan vaqtda aniqlangan va tasdiqlangan materiallarga sud qaroriga asos qilib olinadi [19].

Tortishuv taraflarning qonuniy bahsidir, ular tenghuquqlilik bilan barcha kuchlarini o'z g'alabalarini ta'minlashga qaratishadi [20].

Fuqarolik protsessida *Due process (tegishli jarayon)* doktrinasiga ko'ra, dalillarni taqdim etish huquqi: fuqarolik ishlari bo'yicha taraflar o'z da'volari yoki himoyalarni qo'llab-quvvatlash uchun tegishli dalillarni taqdim etish huquqiga ega. Bunga hujjatlar, guvohlarning ko'rsatmalari va ekspert ko'rsatmalari kiradi. Fuqarolik ishlari bo'yicha dalillar va ish yuritish qoidalari dalillarning adolatli va tartibli taqdim etilishini ta'minlashga qaratilgan [21]. Ushbu doktrinaning asosiy g'oyasi ham taraflar o'rtasida tortishuvchilik prinsipini ro'yobga chiqarish hisoblanadi.

Amaldagi FPKning 10-moddasida tortishuvchilik prinsipining mazmun-mohiyati haqida hech qanday qoida belgilanmagan. Bizning fikrimizcha, ushbu moddada tortishuvchilik prinsipining mazmun-mohiyatini anglatib turadigan, ya'ni har bir taraf ish uchun ahamiyatli bo'lgan va o'z da'volari yoki e'tirozlari uchun asos bo'lgan holatlarni isbotlashi shartligi, sud mustaqillik, xolislikni ta'minlagan holda dalillarni olishda ishda ishtirok etuvchi shaxslarga yordam berishi, fuqarolik ishlarini ko'rib chiqish va hal qilishda dalillarni har tomonlama va to'liq tekshirishi, faktik holatlarni aniqlash va qonunni to'g'ri qo'llash bo'yicha qoidalar mustahkamlanishi davr talabidir. Bu borada boshqa davlatlar tajribasini o'rganadigan bo'lsak, masalan, Rossiya Federatsiyasi FPKning 12-moddasi, Qozog'iston Respublikasi FPKning 15-moddasi, Ukraina Respublikasi FPKning 12-moddasida tortishuvchilik prinsipining mazmun-mohiyati to'liq bayon etilgan. Yuqoridagilardan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 10-moddasini yangi tahrirda qabul qilish davr talabidir.

Fuqarolik sud ishlarini yuritishda protsess ishtirokchilarining protsessual huquqlarni suiiste'mol qilish holatlari ko'payib bormoqda. Chunki FPKda protsessual huquqlarni suiiste'mol qilish tushunchasi, uning oqibatlari berilmagan. Shuning uchun ushbu tushunchaning mazmun-mohiyatini yoritib berish, protsessual huquqlarni suiiste'mol qilish tushunchasini tahlil qilish maqsadga muvofiq.

Q.S. Avezovning fikriga ko'ra, "suiiste'mollik moddiy va protsessual huquqda o'ziga xos xususiyatga ega. Moddiy huquqda suiiste'mollik "shikana" qoidasida o'z ifodasini topgan. Bunda suiiste'mollik shaxs huquqlarining amalga oshirishi o'zgalarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga putur yetkazmasligi sifatida tushuniladi. Shu sababli huquqiy munosabat ishtirokchilari o'z harakatlarida halollik va oqilonalikka rioya etishlari talab etiladi. Protsessual huquqda ham huquqlarni suiiste'mol qilish masalalari dolzarbdir. Bunda protsessual-huquqiy munosabat ishtirokchisi o'z huquq va qonuniy manfaatlarini amalga oshirishda ikkinchi tarafning manfaatlariga putur yetkazmasligi, o'z huquqlarini ta'minlash maqsadiga qarama-qarshi harakat qilmasligi va shu yo'l bilan boshqa shaxs huquqlarini buzmasligini zarur deb hisoblaydi" [22].

T.P. Podshivalov: "Suiiste'mol qilish – sud muhokamasi ishtirokchilarining nizoni hal qilish maqsadlariga monelik qiladigan har qanday harakatlar", – deb tushunadi [23].

D.Y. Zaykov protsessual huquqlarni suiiste'mol qilish ishda ishtirok etuvchi shaxslar tomonidan protsessual foyda olish maqsadida amalga oshirilishini, protsessual huquqlarni suiiste'mol qilishning oqibati esa protsessning boshqa ishtirokchilariga protsessual zarar yetkazishini qayd etadi [24].

A.A. Jukovning fikriga ko'ra, protsessual huquqni suiiste'mol qilish deganda, ishda ishtirok etuvchi shaxs tomonidan sud majlisini buzishga, sud jarayonini kechiktirishga,

ishni ko'rib chiqishga to'sqinlik qilishga va qonuniy hamda asosli sud hujjatini qabul qilishga qaratilgan protsessual harakatlar (harakatsizlik) sodir etilishi, shuningdek, ishda ishtirok etuvchi shaxs tomonidan talabnoma yuborish yoki nizoni sudgacha hal qilish tartibini buzish tushuniladi [25].

Ushbu fikrlaridan ko'rinib turibdiki, protsessual huquqlarni suiiste'mol qilish deganda asosan odil sudlovni amalga oshirishga to'sqinlik qilish, dalillarni sudga vaqtida taqdim etmaslik, sud va ishda ishtirok etuvchi shaxslarning ortiqcha vaqtini olish va atayin sud jarayonini kechiktirish kabi holatlarni tushunishimiz mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, "Protsessual huquqlarni suiiste'mol qilish" tushunchasiga quyidagicha ilmiy ta'rif berish mumkin: Protsessual huquqlarni suiiste'mol qilish – bu fuqarolik sud ishlarini yuritish ishtirokchilarini qonunda nazarda tutilgan protsessual huquqlardan insofsiz foydalanish bo'lib, uning maqsadi sud protsessining normal borishiga to'sqinlik qilish, sud jarayonlarini sekinlashtirish, muddatlarni cho'zish, sud protsessi ishtirokchilari vaqtini olish, ularga ham moddiy, ham protsessual zarar yetkazishdir.

Shuni ta'kidlash lozimki, protsessual huquqni suiiste'mol qilish, umuman olganda, huquqni suiiste'mol qilishning bir turi hisoblanadi. Ushbu prinsip fuqarolik sud ishlarini yuritishni intizomga solishga qaratilgan. FPKning 40-moddasida ishda ishtirok etuvchi shaxslar o'zlariga berilgan barcha protsessual huquqlardan insofli ravishda foydalanishi lozimligi belgilangan.

Shunday qilib, biz protsessual huquqlarni suiiste'mol qilishga xos bo'lgan bir qator xususiyatlarni ko'rsatishimiz mumkin:

1. Qonunda belgilangan protsessual huquqlardan insofsiz foydalanish. Shaxs o'z protsessual huquqlaridan qasddan protsess va uning ishtirokchilari zarariga foydalanadi va shu bilan sud qarorining qabul qilinishini sekinlashtiradi.

2. Rasmiy ravishda protsessual huquqlarni suiiste'mol qilish qonuniy harakatga o'xshaydi.

3. Protsessual huquqlarni suiiste'mol qilishdan maqsad huquqni suiiste'mol qilgan taraf uchun salbiy qaror qabul qilinishiga to'sqinlik qilish yoki o'z manfaatlarini ko'zlab protsessni kechiktirish, masalan, zarur yoki qo'shimcha dalillarni qidirishdir.

Huquqni suiiste'mol qilishga qaratilgan harakatlarga bahoni sud beradi, agar sud buni zarur deb hisoblasa, kodeksda nazarda tutilgan salbiy oqibatlarni qo'llaydi.

Boshqa huquqiy prinsiplar singari, qonunni, shu jumladan, protsessual huquqlarni suiiste'mol qilishga yo'l qo'yilmasligi prinsipi ham huquqiy normalar tizimida ifodalangani. Misol uchun, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 21-moddasida inson o'z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning, jamiyat hamda davlatning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga putur yetkazmasligi shartligi belgilangan. Ushbu qoida nafaqat jismoniy shaxslarga, balki yuridik shaxslarga nisbatan ham qo'llanadi.

Agar xorijiy davlatlar tajribasiga qarasa, unda ko'plab mamlakatlarda huquqlarni suiiste'mol qilishni taqiqlash konstitutsiyaviy prinsip bo'lib, bevosita mamlakatning asosiy qonuni matnida mustahkamlangan. Masalan, Yaponiya Konstitutsiyasining 12-moddasida xalq erkinlik va huquqlarni suiiste'mol qilishdan saqlanishi lozimligi ko'rsatilgan [26]. Gretsiya Respublikasi Konstitutsiyasining 25-moddasiga asosan huquqlarni suiiste'mol qilishga yo'l qo'yilmasligi belgilangan [27]. Xuddi shunday qoidalar Bolgariya Konstitutsiyasining 57-moddasida [28], Germaniya Konstitutsiyasining 74-moddasida [29] va boshqa bir qator davlatlar Konstitutsiyalarida ham mustahkamlangan.

Bundan tashqari, ushbu prinsip fuqarolik protsessida muayyan harakat amalga oshirishni taqiqlash (huquqni suiiste'mol qilishga yo'l qo'yilmasligi) shaklida tartibga soluvchi

ta'sirga ega, ammo fuqarolik protsessual qonun hujjatlarida bu prinsip to'g'risida aniq tushuncha va mezonlar shakllantirilmaganligini hisobga olish lozim. Fuqarolik protsessual qonunchiligida ushbu qoida prinsip sifatida mustahkamlanmasa, sudlar uchun sud muhokamasining normal o'tishini ta'minlash qiyin bo'ladi.

Armaniston Respublikasi FPKning 14-moddasida protsessual huquqlarni suiiste'mol qilishga yo'l qo'yilmasligi qoidasi alohida prinsip sifatida kiritilgan [30].

Yuqoridagilarga asoslanib, O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi tomonidan sudlarga tavsiyalar ishlab chiqish orqali protsessual huquqlarni suiiste'mol qilganlik uchun javobgarlikni belgilaydigan FPKga o'zgartirishlar kiritish, huquqlardan belgilangan doirada foydalanish va suiiste'mol qilish chegaralarini belgilashni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Bu borada Q.S. Avetisyan ham "O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksiga o'zining protsessual huquqlarini suiiste'mol qiluvchi shaxs zimmasiga sud xarajatlarini yuklash haqidagi norma kiritish to'g'risidagi taklifni ilgari surgan" [22].

Bizni fikrimizcha, sud tomonidan protsessual huquqlarni suiiste'mol qilishga yo'l qo'yilmasligi va huquqbuzarlik uchun javobgarlik to'g'risida protsess boshlanishidan oldin ogohlantirishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Kelgusida O'zbekiston Respublikasi FPKning "Fuqarolik sud ishlarini yuritish prinsiplari" deb nomlangan bobga "Protsessual huquqlarni suiiste'mol qilmaslik" nomli yangi prinsipni kiritish maqsadga muvofiq. Fuqarolik protsessi doirasida protsessual huquqlarni suiiste'mol qilishga yo'l qo'yilmasligi prinsipining ahamiyati shundan iboratki, u birinchidan, huquqlar suiiste'mol qilinishining har qanday shaklining oldini olishga qaratilgan profilaktik funksiyani bajaradi. Ikkinchidan, fuqarolik protsessi ishtirokchilarining protsessual huquqlari mazmunini aniq belgilash, ushbu huquqlarni amal-

ga oshirish chegaralarini belgilash va ularni amalga oshirish mexanizmini optimallashtirish imkonini beradi.

Xulosalar

Fuqarolik sud ishlarini yuritish prinsiplarini ilmiy-nazariy tahlil qilgan holda quyidagi nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Qonuniylik prinsipi tushunchasi ilmiy-nazariy tahlil etilib, quyidagicha ilmiy ta'rif ishlab chiqildi: Qonuniylik prinsipi – bu odil sudlovni amalga oshirishda fuqarolik protsessi ishtirokchilari tomonidan qonunlarga qat'iy va so'zsiz rioya qilish va ijro etishni, sudlar tomonidan fuqarolik ishlarini O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Fuqarolik protsessual kodeksi va boshqa qonunchilik hujjatlariga qat'iy amal qilgan holda ko'rib chiqish, hal etish hamda adolatli qaror qabul qilishni ta'minlaydigan prinsipdir.

2. Erkin huquq prinsipi tushunchasi ilmiy-nazariy tahlil etilib, quyidagicha ilmiy ta'rif ishlab chiqildi: Erkin huquq prinsipi – bu fuqarolik protsessini boshlab beruvchi, boshqa prinsiplarni harakatga keltiruvchi, ularga rahbarlik vazifasini bajaruvchi prinsipdir. Fuqarolik protsessual huquqda erkin huquq prinsipi – bu o'zining yoki boshqa shaxslarning buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqlari yoxud qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida fuqarolik protsessini vujudga keltirish, harakatlantirish va tugatish bilan bog'liq bo'lgan protsessual huquqlardan foydalanish erkinligidir.

3. Protsessual huquqlarni suiiste'mol qilish tushunchasiga quyidagicha ilmiy ta'rif ishlab chiqildi: Protsessual huquqlarni suiiste'mol qilish – bu fuqarolik sud ishlarini yuritish ishtirokchilarini qonunda nazarda tutilgan protsessual huquqlardan insofsiz foydalanish bo'lib, uning maqsadi sud protsessining normal borishiga to'sqinlik qilish, sud jarayonlarini sekinlashtirish, muddatlarni cho'zish, sud protsessi ishtirokchilari vaqtini olish, ularga ham moddiy, ham protsessual zarar yetkazishdir.

4. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining "Fuqarolik sud ishlarini yuritish prinsiplari" deb nomlangan 2-bobiga qonuniylik prinsipi to'g'risida yangi prim modda kiritish taklif etiladi:

7¹-modda. Qonuniylik prinsipi

Sudya, ishda ishtirok etuvchi shaxslar va odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashuvchi shaxslar, shuningdek, fuqarolik sud ishlarini yuritishda ishtirok etayotgan barcha shaxslar odil sudlovni amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, ushbu kodeks va O'zbekiston Respublikasi boshqa qonunlariga aniq rioya etishlari va ularning talablarini bajarishlari shart.

5. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 10-moddasini quyidagi mazmunda bayon etish taklif etiladi:

"Fuqarolik sud ishlarini yuritish taraflarning tortishuvi va teng huquqliligi asosida amalga oshiriladi.

Har bir taraf ish uchun ahamiyatli bo'lgan va o'z da'volari yoki e'tirozlari uchun asos bo'lgan holatlarni isbotlashi shart.

Sud mustaqillik, obyektivlik va xolislikni ta'minlagan holda jarayonni boshqaradi va ishning holatlarini to'liq va xolis o'rganish bo'yicha taraflarning protsessual huquqlaridan to'liq foydalanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

Sud ishda ishtirok etuvchi shaxslarga ularning huquq va majburiyatlarini tushuntiradi, protsessual harakatlarni amalga oshirish yoki qilmaslik oqibatlari haqida ogohlantiradi, ularning huquqiy pozitsiyalari va dalillarini aniqlaydi, ular bilan ishning holatlarini muhokama qiladi va ushbu kodeksda nazarda tutilgan hollarda ularga o'z huquqlarini amalga oshirishda yordam beradi.

Sud fuqarolik sud ishlarini yuritish vazifalaridan kelib chiqib, tarafning asoslantirilgan iltimosiga binoan yoki o'z tashabbusi bilan ish materiallarini to'plash va o'rganish, taraflarning dalillari asosililigini va sudga taqdim etilgan dalillarning ishonchliligini tekshirish choralarini ko'radi.

Sud tomonlarga teng va hurmat bilan munosabatda bo'ladi".

6. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining "Fuqarolik sud ishlarini yuritish prinsiplari" deb nomlangan 2-bobiga erkin huquq (dispozitivlik) prinsipi to'g'risida yangi prim modda kiritish taklif etiladi:

16¹-modda. Erkin huquq (dispozitivlik) prinsipi

"Fuqarolik ishlari bo'yicha sudda ish taraflar, uchinchi shaxslar, ularning vakillari, ariza beruvchilar va sudda ko'rilayotgan alohida tartibda yuritiladigan ishlar bo'yicha boshqa manfaatdor shaxslar, buyruq tartibida ish yuritishda undiruvchi va qarzdor, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalarining ma'muriy va boshqa ommaviy huquqiy munosabatlardan yuzaga kelmaydigan qarorlari hamda ular mansabdor shaxslarining shunday harakatlari (harakatsizligi) yuzasidan nizolashish to'g'risidagi ishlarda fuqaro, mansabdor shaxslar va ishning yakunidan manfaatdor bo'lgan shaxslar, prokuror, ishda boshqa shaxslarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilishda ishtirok etadigan davlat boshqaruvi organlari, tashkilotlar va ayrim fuqarolarning arizasi asosida qo'zg'atiladi.

Ishning natijalaridan qonuniy manfaatdor bo'lgan shaxslar o'z moddiy va protsessual huquqlarini boshqa shaxslar va davlatning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzmagani holda erkin tasarruf etish huquqiga ega.

Taraflar kelishuv bitimini yoki mediativ kelishuvni tuzib, nizoni o'zaro talablarning to'liq hajmida yoki qisman hal etishi mumkin.

Da'vogar bildirilgan talablarning asosini yoki predmetini o'zgartirishga, qo'shimcha talablar taqdim etishga, da'vo talablarining miqdorini oshirishga yoxud kamaytirishga, ulardan to'liq yoki qisman voz kechishga haqli.

Da'vogar da'vodan voz kechishi, javobgar esa unga qarshi qo'yilgan da'voni to'liq yoki qisman tan olishi va qarshi da'vo taqdim etishi mumkin.

Sud hujjatlari ustidan ushbu kodeksda belgilangan tartibda ishda ishtirok etuvchi shaxslar, shuningdek, huquq va majburiyatlari yuzasidan sud tomonidan sud hujjatlari qabul qilingan shaxslar tomonidan shikoyat qilinishi mumkin.

7. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining "Fuqarolik sud ishlarini yuritish prinsiplari" deb nomlangan 2-bobiga "Protsessual huquqlarni suiiste'mol qilmaslik" prinsipi to'g'risida yangi prim modda kiritish taklif etiladi:

16²-modda. Protsessual huquqlarni suiiste'mol qilmaslik

Fuqarolik sud ishlarini yuritish ishtirokchilari o'zlariga berilgan protsessual huquqlardan vijdonan foydalanishi va protsessual majburiyatlarga rioya qilishlari shart.

Protsessual huquqlarni suiiste'mol qilish sud tomonidan ushbu kodeksda nazarda tutilgan protsessual choralar qo'llanishi yoki qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa ta'sir choralari qo'llanishiga olib keladi.

REFERENCES

1. French R. The principle of legality and legislative intention. *Statute Law Review*, 2019, vol. 40/1, pp. 40–52. DOI: 10.1093/slr/hmy031. Available at: <https://academic.oup.com/slr/article-abstract/40/1/40/5238966>

2. Osnovnyye printsipy grazhdanskogo sudoproizvodstva [Basic principles of civil procedure]. Moscow, MSU Publ., 1991, p. 9.

3. Vikut M.A., Zaytsev I.M. Grazhdanskiy protsess Rossii [Civil procedure of Russia]. Moscow, Yurist Publ., 2001, p. 39.
4. Fedina A.S. Realizatsiya printsipa zakonnosti v grazhdanskom protsesse [Implementation of the principle of legality in civil proceedings]. Tver, 2002, p. 3.
5. Dolgopyat A.O. Ponyatiye i sodержaniye printsipa zakonnosti [The concept and content of the principle of legality]. 2008. Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/ponyatie-i-soderzhanie-printsipa-zakonnosti-1/viewer>
6. Suleymanova K.M. Printsip zakonnosti v nauche grazhdanskogo protsessa [The principle of legality in the science of civil procedure]. Legal Science, 2016, vol. 6, p. 170.
7. Grazhdanskiy protsessual'nyy kodeks Respubliki Kazakhstan [Civil Procedure Code of the Republic of Kazakhstan]. Available at: <https://adilet.zan.kz/rus/docs>
8. Mirziyoyev Sh.M. Konstitutsiya va qonun ustuvorligi – huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining eng muhim mezonidir [The Constitution and the rule of law are the most important criteria for a legal democratic state and civil society]. Speech at the solemn ceremony dedicated to the 27th anniversary of the adoption of the Constitution of the Republic of Uzbekistan. Available at: <https://president.uz/uz/lists/view/3119>
9. Mirakulov M. Konstitutsiya va qonunning ustunligi [Constitution and the rule of law]. Available at: https://constitution.uz/uz/pages/Konstitutsiya_ustunligi
10. Shoraxmetov Sh.Sh. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi [Civil procedural law of the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, Adolat Publ., 2001, p. 39.
11. Minashkin A.V. Formirovaniye printsipov administrativnogo sudoproizvodstva [Formation of principles of administrative proceedings]. *Arbitrary and Civil Process*, 2005, vol. 2, p. 40.
12. Aliyev T.T. Sistema pechati na etape obzora vyyavila novyye resheniya tekushchikh problem, opredelyayushhiye situatsiyu [The printing system at the review stage revealed new solutions to current problems that define the situation]. *Law and Politics*, 2004, vol. 3, p. 116.
13. Antoshin R.A. Dispozitivnost' i sostyazatel'nost' v sudoproizvodstve: problemy nastoyashchego [Dispositiveness and adversarial nature in legal proceedings: problems of the present]. *Modern Law*, 2001, vol. 8, p. 43.
14. Abova T.Ye. Arbitrazhnyy sud v sudebnoy sisteme [Arbitration court in the judicial system]. *State and Law*, 2000, vol. 9, pp. 10–12.
15. Grazhdanskiy protsessual'nyy kodeks Respubliki Belarus' [Civil Procedure Code of the Republic of Belarus]. Available at: https://kodeksy-by.com/grazhdanskij_protsessualnyj_kodeks_rb.htm
16. Grazhdanskiy protsessual'nyy kodeks Respubliki Ukraina [Civil Procedure Code of the Republic of Ukraine]. 2004, No. 1618-IV. Available at: https://continent-online.com/Document/?doc_id=30418564#pos=711
17. Grazhdanskiy protsessual'nyy kodeks Estonskoy Respubliki [Civil Procedure Code of the Republic of Estonia]. Available at: <https://www.juristaitab.ee/sites/default/files/seaduste-tolked>
18. Grazhdanskiy protsessual'nyy kodeks Respubliki Armeniya [Civil Procedure Code of the Republic of Armenia]. Available at: <http://www.parliament.am/legislation>
19. Shoraxmetov Sh.Sh. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi [Civil procedural law of the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, Adolat Publ., 2001, p. 43.
20. Lifanov A.V. Nekotoryye osobennosti mediatsii v grazhdanskikh protsessakh [Some features of mediation in civil proceedings]. *International Journal of Gastronomic and Scientific Sciences*, 2021, p. 21.
21. Due process. Available at: https://www.law.cornell.edu/wex/due_process
22. Avezov Q.S. Iqtisodiy protsessda taraflarning huquqiy maqomini takomillashtirish masalalari [Issues of improving the legal status of parties in economic proceedings]. Tashkent, 2019, p. 15.
23. Podshivalov T.P. Zapret zloupotrebleniya protsessual'nymi pravami v arbitrazhnom protsesse [Prohibition of abuse of procedural rights in arbitration proceedings]. *Russian Justice*, 2014, vol. 9, pp. 17–23.

24. Zaykov D.E. Ponyatiye i sodержaniye zloupotrebleniya protsessual'nyimi pravami v arbitrazhnom i grazhdanskom sudoproizvodstve [The concept and content of abuse of procedural rights in arbitration and civil proceedings]. *Arbitrary and Civil Process*, 2014, vol. 9, pp. 45–52.

25. Zhukov A.A. Pravovyye sredstva vozdeystviya suda na protsessual'noye povedeniye storon v grazhdanskom sudoproizvodstve [Legal means of influencing the court on the procedural behavior of the parties in civil proceedings]. Moscow, 2022, p. 69.

26. Japanese Constitution. Available at: <https://legalns.com/download/books/cons/japan.pdf>

27. Constitution of Greece. Available at: <https://legalns.com/download/books/cons/greece.pdf>

28. Constitution of Bulgaria. Available at: <https://legalns.com/download/books/cons/bulgaria.pdf>

29. Constitution of Germany. Available at: <https://legalns.com/download/books/cons/germany.pdf>

30. Grazhdanskiy protsessual'nyy kodeks Respubliki Armeniya [Civil Procedure Code of the Republic of Armenia]. Available at: <http://www.parliament.am/legislation.php?sel=show&ID=6196&lang=rus#2a>

Kelib tushgan / Получено / Received: 21.10.2024
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 12.12.2024
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 24.12.2024

DOI: 10.51788/tsul.rols.2024.8.4./IWWY8493

UDC: 347.962(045)(575.1)

FUQAROLIK VA IQTISODIY PROTSESSDA SUDYA YORDAMCHISINING HUQUQIY MAQOMI

Xudonazarov Dadaxon Avaz o'g'li,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Fuqarolik protsessual va iqtisodiy protsessual
huquqi kafedrası mudiri o'rinbosari,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)
ORCID: 0000-0002-1571-1839
e-mail: dadaxon.xudonazarov92@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada sudya yordamchisi (katta yordamchisi) – sud majlisi kotibining iqtisodiy va fuqarolik protsessidagi ishtirokiga oid barcha jarayonlar tahlil qilindi. Sudya yordamchisi (sud majlisi kotibi)ning huquqiy maqomini aniqlashtirish bo'yicha bahs-munozaralar mavjudligi ushbu mavzuning dolzarbligini belgilaydi. Shundan kelib chiqib, uning huquqiy maqomini belgilash borasidagi xorijiy va mahalliy huquqshunos olimlarning fikrlari o'rganildi, sudya yordamchisi faoliyatiga oid tushunchalarga oydinlik kiritildi. Muallif sudya yordamchisi (sud majlisining kotibi)ning odil sudlovga ko'maklashuvchi shaxslardan yana bir farqi ularni protsessga jalb qilish tartibida namoyon bo'lishini ta'kidlaydi. Shuningdek, ishda ishtirok etayotgan shaxslar sud majlisi kotibini asosli rad etish huquqiga ega ekanini amaldagi qonunchilikka ko'ra asoslaydi. Maqolada sudya (sud) uchun katta kuch sifatida qaraladigan sudya yordamchisining vazifalari va funksiyalari qonunchilik hujjatlari asosida ko'rib chiqilib, xulosalar qilindi. Uning faoliyatini raqamlashtirish bo'yicha xorijiy davlatlar tajribasi o'rganildi. Tadqiqot natijasida xo'jalik va fuqarolik ishlari bo'yicha sudlar va boshqa sudlarda sudya yordamchisi (sud majlisi kotibi) ishtiroki bilan bog'liq ijobiy hamda salbiy tomonlar mavjudligi aniqlandi. Xulosada mavjud muammolarni hal etish, qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar va takliflar berildi.

Kalit so'zlar: sudya yordamchisi, sudya, bayonnoma, iqtisodiy jarayon, zarur talablar, hakamlik sudi, o'zini rad qilish

ПРАВОВОЙ СТАТУС ПОМОЩНИКА СУДЬИ В ГРАЖДАНСКОМ И ЭКОНОМИЧЕСКОМ ПРОЦЕССЕ

Худойназаров Дадахон Аваз угли,
доктор философии по юридическим наукам (PhD),
заместитель заведующего кафедрой
«Гражданское процессуальное и экономическое
процессуальное право» Ташкентского государственного
юридического университета

Аннотация. В статье проанализированы все процессы, касающиеся участия помощника судьи (старшего помощника) – секретаря судебного заседания в экономическом и гражданском процессе. Актуальность данной темы определяет наличие дискуссий по уточнению правового

статуса помощника судьи (секретаря судебного заседания). Исходя из этого, были изучены мнения зарубежных и отечественных учёных-правоведов относительно установления его правового статуса, уточнены понятия, относящиеся к деятельности помощника судьи. Автор отмечает, что ещё одно отличие помощника судьи (секретаря судебного заседания) от лиц, способствующих отправлению правосудия, проявляется в порядке их привлечения к процессу. Также обосновано, что лица, участвующие в деле, имеют право на отказ от секретаря суда в соответствии с действующим законодательством. В статье были сделаны выводы на основании законодательных актов об обязанностях и функциях помощника судьи, которые рассматриваются как имеющие большое значение для судьи (суда). Изучен опыт зарубежных стран по цифровизации его деятельности. Исследование выявило наличие как положительных, так и отрицательных сторон, связанных с участием помощника судьи (секретаря судебного заседания) в экономических и гражданских судах и других. Заключение содержит рекомендации и предложения по решению существующих проблем, совершенствованию законодательства.

Ключевые слова: помощник судьи, судья, протокол, экономический процесс, необходимые требования, арбитражный суд, самоотказ

LEGAL STATUS OF THE ASSISTANT JUDGE IN CIVIL AND ECONOMIC PROCEEDINGS

Khudoynazarov Dadahon Avaz ugli,

Deputy Head of the Department of Civil Procedural
and Economic Procedural Law,
Tashkent State University of Law,
Doctor of Philosophy (PhD) in Law

Abstract. The article analyzes all the processes related to the participation of the assistant judge (senior assistant) - the secretary of the court session in the economic and civil process. The relevance of this topic is determined by the existence of discussions on clarifying the legal status of the assistant judge (secretary of the court session). Based on this, the opinions of foreign and domestic legal scholars on the determination of its legal status were studied, and the concepts related to the activities of the assistant judge were clarified. The author emphasizes that another difference between the assistant judge (secretary of the court session) and persons assisting in justice is manifested in the order of their involvement in the process. He also justifies that the persons participating in the case have the right to reasonably refuse the secretary of the court session according to the current legislation. The article examines the tasks and functions of the assistant judge, who is considered a powerful force for the judge (court), based on legislative documents, and draws conclusions. The experience of foreign countries in digitalizing their activities has been studied. As a result of the study, it was found that there are both positive and negative aspects related to the participation of the assistant judge (secretary of the court session) in economic and civil courts and other courts. In conclusion, recommendations and suggestions are provided for solving existing problems and improving legislation.

Keywords: assistant judge, judge, protocol, economic process, necessary requirements, arbitration court, self-rejection

Kirish

Odil sudlovni ta'minlashning ustuvor vazifalari inson qadri uchun g'oyasi asosida chinakam adolatli sud tizimini shakllantirish, uning faoliyatini xalq manfaati va inson

qadr-qimmatini samarali himoya qilishga yo'naltirish, adolatli sud qarorlari qabul qilinishiga erishish orqali xalqning, xususan, tadbirkorlarning sud tizimiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash, har bir shaxs sud va

sudyalar siymosida o'zining ishonchli himoyachisini ko'rishiga erishish, fuqarolar hamda tadbirkorlarga o'z huquq va qonuniy manfaatlarini sudlarda himoya qila olishi uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sud ishlarini yuritishda tortishuv va taraflarning tengligi tamoyillarini to'laqonli ro'yobga chiqarish, sudlarning xolisligini amalda ta'minlashga qaratilgan qonunchilikni takomillashtirish etib belgilandi.

Sudya yordamchisining o'rni bugungi kunda sud jarayoni va suddagi ishlarning butunlay katta qismini qamrab olgan, desak mubolag'a bo'lmaydi. Aynan o'z nomi bilan aytganda sudya yordamchisi sudya (sud) uchun katta kuch sifatida qaralmoqda. Uning ishtiroki, huquqiy maqomi va o'rnini o'rganish hamda tadqiq etish bugungi iqtisodiy va fuqarolik protsessi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolada tadqiqot obyekti sifatida fuqarolik va iqtisodiy protsessda sudya yordamchisining ishtirokiga oid barcha jarayonlar tahlil qilindi.

Material va metodlar

Ushbu maqolada analitik tahlil, qiyosiy, tizimli-funksional, modellashtirish metodlaridan foydalanilgan.

Tadqiqot natijalari

Sudya yordamchisi (katta yordamchisi) – sud majlisi kotibining ishtiroki yuzasidan huquqshunos olimlar fikrlari tahlil qilinib, sudya yordamchisi faoliyatiga oid tushunchalarga oydinlik kiritilib, mualliflik tushunchasi keltirildi. Shundan kelib chiqib taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Iqtisodiy sud ishlarini yuritish ishtirokchisi hisoblangan sudya yordamchisi (sud majlisi kotibi)ning huquqiy maqomini aniqlash tirish lozim. Chunki iqtisodiy sudning mansabdor shaxslari, masalan, sudya yordamchisi (sud majlisi kotibi) iqtisodiy protsess ishtirokchilarining alohida protsessual guruhini tashkil etadi. Ushbu guruhning o'ziga xos xususiyati shundaki, ular iqtisodiy sud apparati xodimlari sifatida protsessual-huquqiy mu-

nosabatlarga kirishadi. Jinoyat-protsessual qonunchiligiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, jinoyat ishlarini yuritishga mas'ul hisoblangan davlat organlari va mansabdor shaxslar sifatida sud majlisi kotibi aniq tarzda bayon etilgan. Jumladan, JPKning "Jinoyat ishini yuritishga mas'ul bo'lgan davlat organlari va mansabdor shaxslar" nomli bobida keltirilgan [1]. Bu esa aynan uning o'rni qayerda bo'lishi kerakligini aniq va lo'nda belgilab bermoqda. Lekin iqtisodiy protsessual qonunchilikda va hattoki Fuqarolik protsessual kodeksida uning o'rnini aniqlash borasida bahs-munozaralar mavjud. V.V. Petrova arbitraj (iqtisodiy) sudida sudya yordamchisining o'rni va rolini baholab, sudya yordamchisi maqomi qonun bilan yetarli darajada tartibga solinmagan deb hisoblaydi. Shuningdek, muallif fikricha, sudyaga sud ishlaridan ozod qilishda haqiqiy yordam berishi uchun sudya yordamchisiga ko'proq protsessual vazifalar yuklanishi mumkin [2].

M.I. Kleandrovning ta'kidlashicha, sudya yordamchisi alohida guruh (alohida subyekt) sifatida ajratilishi yoki hakam kabi subyekt guruhi sifatida tasniflanishi kerak [3]. Y.A. Tresheva: "Sud majlisi kotibi va sudya yordamchisi arbitraj (iqtisodiy) protsessual munosabatlar subyektlari hisoblanadi, ammo sud majlisi kotibi va sudya yordamchilarini arbitraj (iqtisodiy) sudi bilan protsessual-huquqiy munosabatlarga ega protsess ishtirokchilariga kiritish mumkin", – deb hisoblaydi. U sudya yordamchisi davlat xizmatchisi sifatida sud organining muayyan vakolatlarini amalga oshirishini ta'kidlaydi [4]. Sud majlisida sud majlisi kotibi vazifasini sudya yordamchisi (katta yordamchisi) bajaradi [5]. Sud majlisi kotibi sud chaqiruv xatlari chaqirilgan shaxslarga topshirilganini kuzatib boradi [6]. Shu bilan birga, O. Ishmatov sudya yordamchisi lavozimi arbitraj sudlari faoliyati darajasini oshirishi va arbitraj sudyalarining o'zlaridagi yuklamani yengillashtirishi kerakligini ta'kidlaydi [7]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi sud

tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4966-son Farmoniga asosan, sud majlisi kotibi lavozimi tugatilgach, sudya katta yordamchisi va sudya yordamchisi lavozimlari kiritilgan edi. Sud majlisi kotibi lavozimi tugatilsa ham, uning nomi hanuzgacha saqlanib qolmoqda hamda belgilangan protsessual harakatlar bajarilgan paytda sudya yordamchi (katta yordamchisi) sud majlisi kotibi bo'lib qatnashishi belgilangan.

Tadqiqot natijalari tahlili

Sudya yordamchisi (sud majlisining kotibi) iqtisodiy sud bilan ma'lum rasmiy huquqiy munosabatlarga kirishi yuzasidan quyidagi dalillar keltirilishi mumkin. Birinchidan, sudya yordamchisi (sud majlisi kotibi) sud majlisining bayonnomasini yuritish, sud majlisida ishtirok etishi lozim bo'lgan shaxslarning sudga kelishini tekshirish va hokazo protsessual harakatlarni amalga oshirish orqali o'zining protsessual huquq va majburiyatlarini bajaradi. Ikkinchidan, sud majlisida sud majlisining kotibligi vazifasini sudya yordamchisi (katta yordamchisi) bajaradi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, sud majlisi kotibi garchi odil sudlovga ko'maklashuvchi shaxslar toifasiga kiritilmagan bo'lsa-da, shu haqdagi bobda qayd etilgan. Bu esa sud majlisi kotibini protsess ishtirokchilarining qaysi toifasiga kiritish haqidagi bahs-munozaralarga yo'l ochib beradi. Umumiy qoidaga muvofiq, odil sudlovga ko'maklashuvchi shaxslar uchun umumiy bo'lgan mezon ularda ish natijalaridan yuridik manfaatdorlik yo'qligidir. Shu jihati bilan ular ishda ishtirok etuvchi boshqa protsess ishtirokchilaridan farqlanadi. M.I. Kleandrov: "Sudya yordamchisi, garchi ma'lum xususiyatlarga ko'ra, odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashadigan shaxslarga mansub bo'lsa-da, lekin qonunga binoan va arbitraj (iqtisodiy) sudi sudyasi tomonidan beriladigan muayyan mustaqil protsessual funksiyalarga egaligi tufayli uni "turli darajadagi arbitraj (iqtisodiy) sudlari" guruhiga kiritish kerak", – deb hisoblaydi [8].

Bizning fikrimizcha, sudya yordamchisi (sud majlisining kotibi)ning odil sudlovga ko'maklashuvchi shaxslardan yana bir farqi ularni protsessga jalb qilish tartibida namoyon bo'ladi. Sud tomonidan sudya yordamchisi (sud majlisi kotibi)ni dastlabki tanlash ishda ishtirok etuvchi shaxslarning xohishirodasiga hech qanday tarzda bog'liq emas. Taraflar iqtisodiy sudga ekspert yoki tarjimon nomzodlarini taklif qilish, guvohni chiqirish to'g'risida iltimosnoma bilan chiqish huquqiga ega, ammo ular sudya yordamchisi (sud majlisi kotibi) nomzodini tanlashda ishtirok etmaydilar. Ishda ishtirok etayotgan shaxslar faqat IPK 21-moddasi va FPK 22-moddasida mustahkamlangan, kodeksda nazarda tutilgan asoslar bo'yicha sud majlisi kotibini asosli rad etish huquqiga ega. Xuddi iqtisodiy sud sudyasi kabi sudya yordamchisi va sud majlisi kotibi ham o'zlariga berilgan vakolatlar doirasida ommaviy vazifalarni bajaradilar. Ularning faoliyati sudyalarning faoliyati bilan chambarchas bog'liq, chunki ular sudning odil sudlovni amalga oshirish faoliyatiga kiruvchi, lekin sudyalardagi kabi yuqori malakani talab qilmaydigan harakatlarni bajaradilar.

Sudya yordamchisi (sud majlisi kotibi) bajarishiga vakolat berilgan harakatlar sudyalarni odil sudlovni bajarish protsessiga bog'liq texnik hamda tashkiliy ishlardan ozod qilishga qaratilgan va shuning uchun ham sud apparati xodimlari tarkibiga kiritilgan. Sudya yordamchisi (sud majlisi kotibi)ning protsessual maqomida odil sudlovga ko'maklashuvchi shaxslardan ajralib turadigan bir qancha o'ziga xos xususiyatlar mavjud. Birinchidan, sudya yordamchisi (sud majlisi kotibi) iqtisodiy protsessual-huquqiy munosabatlarda sud apparati xodimi bo'lganligi va sud bilan rasmiy-huquqiy munosabatlarda ekanligi sababli ishtirok etadilar. Ikkinchidan, sudya yordamchisining sud majlisi bayonnomasini yuritishdan tashqari faoliyati sudga IPK 58-moddasida nazarda tutilgan hollarda protsessual harakatlarni amalga oshirishda

yordam berishga qaratilgan. FPK 206-moddasiga ko'ra, sudya yordamchisi (katta yordamchisi) sudya topshirig'iga binoan quyidagi harakatlarni amalga oshiradi:

1) sudyaga kelib tushgan arizalarni o'rganadi va ularni ko'rish yuzasidan takliflar kiritadi, sud hujjatlari loyihalarini tayyorlaydi;

2) ishni sud muhokamasiga tayyorlash vazifalarini hal qilishda, shu jumladan, ishda ishtirok etuvchi shaxslar doirasini aniqlashda va boshqa shaxslarni jalb qilish to'g'risidagi masalani hal etishda ishtirok etadi;

3) sud protsessini tayyorlash va o'tkazishni tashkil etishda ishtirok etadi;

4) ariza va murojaatlar, shuningdek, ko'rilishi keyinga qoldirilgan yoki ish yuritish to'xtatib turilgan ishlar o'z vaqtida ko'rilishi ta'minlanishini tashkil etadi;

5) taraflar va protsessning boshqa ishtirokchilarini ishni ko'rish vaqti va joyi haqida xabardor qiladi. Bundan tashqari, sudya yordamchisi (katta yordamchisi) sudyaning topshirig'iga binoan boshqa harakatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Shuningdek, sudya yordamchisi (sud majlisi kotibi)ning protsessual vazifalarini lozim darajada bajarishi faqatgina intizomiy javobgarlik choralari bilan kafolatlanadi. M.I. Kleandrov sudya yordamchilari va sud majlisi kotiblarini arbitraj (iqtisodiy) protsessi ishtirokchilari alohida guruhi sifatida ajratib ko'rsatish kerakligi haqidagi fikrni bildirib o'tadi. Sudya yordamchisi (sud majlisi kotibi) iqtisodiy sudning mansabdor shaxslari hisoblanib, protsessual-huquqiy subyektlikka emas, balki vakolat doirasiga ega. Ular o'z mansab vazifalarini bajarish doirasida iqtisodiy protsessda ishtirok etadi va faqat protsessual majburiyatlardan iborat bo'lgan ma'lum huquqiy vakolatlarga ega bo'lib, jismoniy shaxs sifatida emas, balki faoliyati qonun berilgan vakolat doirasi bilan cheklanadigan ommaviy subyektlar sifatida ish yuritadilar. A.V. Sorokopudning ta'kidlashicha, "sudya yordamchisi sud bilan huquqiy munosabatga kirishadi va bu huquq

normalari bilan tartibga solinadigan va davlatning majburlov kuchi bilan himoyalangan irodaviy ijtimoiy munosabat bo'lib, davlat xizmatni tashkil etish hamda amalga oshirish jarayonidagi kasbiy faoliyat turi sifatida vujudga keladi"[9].

Sudya yordamchisi (sud majlisi kotibi)ning ish jarayoni sudya faoliyatini ta'minlashga qaratilgan tashkiliy, huquqiy, axborot, hujjatlashtirish va boshqa yo'nalishlarga ega bo'lgan namunaviy rasmiy nizomlar orqali tahlil qilinadi. Demak, sudya yordamchisi (sud majlisi kotibi) iqtisodiy protsessda ishtirok etuvchi boshqa shaxslardan maqsadi, vazifalari, sud bilan huquqiy munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari, huquq va majburiyatlari doirasi (lokal hujjatlarda belgilangan), javobgarlik choralari bilan farqlanadi.

Shundan kelib chiqqan holda, sudya yordamchisi (sud majlisi kotibi)ni iqtisodiy protsessning odil sudlovga ko'maklashuvchi shaxslari qatoriga kiritib bo'lmaydi, shuningdek, yuridik-texnik qoidalarga rioya qilgan holda IPK va FPKda sud tarkibi qatoriga kiritish (alohida subyekt sifatida) hamda IPK 52-moddasida keltirilgan "sud majlisining kotibi"ni ushbu kodeksning "sud tarkibi" va FPK 55-moddasidagi "sud majlisining kotibi" lavozimini ushbu kodeksning tegishli bobida aks ettirish lozim.

Bundan tashqari, sudya yordamchisi faoliyatini raqamlashtirish borasida ham ma'lum ishlar amalga oshirilmoqda. Bunda sudya yordamchisi sud bayonnomalarini yuritishda audio va videoyozuvlardan foydalanadi, sud majlisi tugagandan so'ng sud majlisi kotibi stenogrammani yuklash amaliyotini bajaradi hamda taraflar uni o'qib chiqishlari va tekshirishlari mumkin. Agar uni o'zgartirish kerak bo'lsa, kotib real vaqt rejimida ekran orqali xabardor qilinishi va kotib uni o'zgartirishi mumkin. Barcha taraflar o'zgartirish va tuzatishlarni bajarib, tasdiqlash va kotib stenogrammani saqlab qo'ygandan so'ng sudya "sudni tugatish" tugmasini bosadi hamda barcha taraflar sud

jarayonidan chiqadi. Shuningdek, sudya yordamchisi sudda vakil bilan qarindoshlik munosabatlarida bo'lsa, vakil bo'lolmaydigan shaxslar qatorida kiritiladi.

Shu o'rinda aytish kerakki, sudya yordamchisi (sud majlisi kotibi) faoliyatini raqamlashtirish bo'yicha S.S. Gulyamov va A.S. Sidikov: "Sudlarda virtual xona tashkil qilinsa, sud majlisi kotibining virtual jarayonda ishtiroki talab etilmaydi, chunki bayonnoma avtomatik ravishda chatda saqlanadi", – deb ta'kidlaydi [10]. Virtual sud jarayoni yakuniga ko'ra, sudya chatdagi suhbatni alohida elektron faylga yuklaydi, bu esa sud majlisi bayonnomasi bo'lib xizmat qiladi.

FPK 278-moddasiga binoan, bayonnoma sud majlisi kotibi tomonidan sud majlisining o'zida yoki sud majlisi zalidan tashqari alohida protsessual harakat bajarilganida yuritiladi. Bayonnoma sud majlisi tamom bo'lganidan yoki alohida protsessual harakat amalga oshirilganidan keyin kechi bilan uch kunda raislik qiluvchi va sud majlisining kotibi tomonidan imzolanishi kerak. Kiritilgan barcha o'zgarishlar, tuzatishlar, qo'shimchalar bayonnomada izohlanishi lozim.

Bu borada xorijiy davlatlar tajribasiga yuzlanamiz. Gruziya tajribasiga ko'ra, sud majlislari bayonnomasini tuzishda audio- va video-yozuvlardan foydalaniladi. Audioyozuv nusxalari taraflarga 3 kun ichida yuboriladi [11]. Singapur Oliy sudida sud majlislarini real vaqt rejimida transkripsiya qilish imkonini beruvchi dastur mavjud. Bu dasturlar orqali audioyozuv real vaqtda qog'ozdagi yozuvga aylanadi. Shuningdek, audioprotokol shaklida ishlarida saqlanadi. 2016-yildan boshlab Vengriya sudlarida "Global Spechtex" va "Spechtex" dasturlari foydalanib kelinmoqda, mazkur dasturlar sud majlisi bayonnomasini tuzishga imkon beradi [12].

Irlandiya sudlari raqamli audioqaydnomalar bilan ta'minlangan. Mazkur audioyozuvlar hamda uning transkripsiyasi bilan sudyaning ruxsati bilan tanishishlari mumkin. O. Pirmatovning fikricha, onlayn sud maj-

lislaridagi sud majlisi kotibi vazifasini sun'iy intellektga asoslangan robot bajaradi [13]. Onlayn sud majlislaridagi robot-yordamchi o'zining elektron imzosi bilan sud hujjatlari ni imzolaydi. Onlayn sud majlislari bayonnomalari sun'iy intellektga asoslangan dasturlar tomonidan tuziladi [14]. Bayonnoma sud majlisi tamom bo'lganidan keyin raislik qiluvchi hamda sud majlisi kotibining elektron imzosi bilan tasdiqlanadi.

Xulosalar

Yuqoridagilardan kelib chiqib, xulosa qilib aytadigan bo'lsak, mazkur tadqiqot natijasida xo'jalik va fuqarolik ishlari bo'yicha sudlar va boshqa sudlarda sudya yordamchisi (sud majlisi kotibi) ishtiroki bilan bog'liq ijobiy va salbiy tomonlar mavjud. Bu xorijiy davlatlar tajribasi, amaliyotda uchrayotgan jihatlari bilan tahlil qilindi. Mazkur masalalarga oid bir qator mavjud muammolarni hal etish, qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha tavsiya va takliflar ishlab chiqildi:

birinchidan, sudya yordamchisi lavozimi mavjud, lekin sud majlisi kotibi lavozimini ham joriy etish va ularning razryadidan hamda vazifalaridan kelib chiqib maosh berish taklif etiladi;

ikkinchidan, sudya yordamchisiga sudyaning ba'zi bir ishlarini yuklash lozim. Masalan, sud buyrug'i, soddalashtirilgan tartibda ish yuritish va boshqalar;

uchinchidan, sudya yordamchisi uchun tablarni belgilash va uni "Sudlar to'g'risida"gi Qonunda aks ettirish lozim;

to'rtinchidan, sudya yordamchisining huquqiy maqomini aniqlash maqsadida "Sudlar to'g'risida"gi Qonunda uning huquqlari, majburiyatlari va javobgarligini aniq belgilab qo'yish lozim;

beshinchidan, sudya yordamchilarini ishga olishda 0.25, 0.5, 0.75 stavkada emas, balki to'liq 1 stavkaga ishga olish taklif etiladi;

oltinchidan, xorijiy davlatlar tajribasini o'rgangan holda sud majlisi bayonnomasini elektron shaklda shakllantirish va uni elek-

tron tasdiqlash imkoniyatlarini oshirish lozim, lekin sudya yordamchisining o'rniga butun robotlarni ishlatib bo'lmaydi;

yettinchidan, sudya yordamchisi tomonidan hal etiladigan ishlarni onlayn tarzda ko'rib hal qilish, sudgacha bo'lgan jarayonda

kelishuv tuzish imkonini beruvchi, sudga oid hujjatlarni masofadan turib olishga imkon beruvchi (ODR – Online Dispute Resolution) raqamli makonni yaratish va qulay muhitni shakllantirish lozim. Bu faqat onlayn rejimda ishlaydi.

REFERENCES

1. Jinoyat-protsessual huquqi [Criminal procedural law]. The authors' collective. Tashkent, TGU Publ., 2019, p. 36.
2. Petrova V.V. Rol' i mesto pomoshhnika sud'i v arbitrazhnom protsesse [The role and place of the judge's assistant in the arbitration process]. Reference system Consultant-Plus Publ., 2016, p. 139.
3. Shakaryan M.S. Ponyatiye sub'yektiv sovetskogo grazhdanskogo protsessual'nogo prava i pravootnosheniya i ikh klassifikatsiya [The concept of subjects of Soviet civil procedural law and legal relations and their classification]. Moscow, 2004, pp. 12–13.
4. Tresheva Ye.A. Sub'yekty arbitrazhnogo protsessa [Subjects of the arbitration process]. Moscow, 2009, p. 146.
5. Sattorova M. Proceedings in Court. Ministry of Higher and Secondary Specialized Education of the Republic of Uzbekistan; Center for Secondary Special and Vocational Education. Tashkent, New Edition Publ., 2012, p. 104.
6. Sattorova M., Alamberdiyeva M. Sudda ish yuritish [Court proceedings]. Tashkent, Yangi nashr Publ., 2012, p. 56.
7. Ishmatov O. Yangi O'zbekistonda yangi bosqichga olib chiqilgan sud hokimiyati [The court in New Uzbekistan has reached a new level khokimiyat]. 2023, p. 2.
8. Kleandrov M.I. Arbitrazhnyy protsess [Arbitrage process]. Moscow, 2006, pp. 57–58.
9. Sorokopud A.V. *Assistant Judge in the System of Civil and Arbitral Procedural Relations*. Law Publ., 2021, p. 5.
10. Gulyamov S.S., Sidikov A.S. O'zbekistonning raqamli iqtisodiyoti rivojlanishi sharoitida iqtisodiy sud ishlarini yuritishni raqamlashtirish va virtuallashtirish [Digitalization and virtualization of economic litigation in the context of the development of Uzbekistan's digital economy]. 2020, vol. 1, p. 36.
11. Proyekt regional'nogo dialoga po reforme sudebnoy sistemy v stranakh Vostochnogo partnerstva [Regional Dialogue on Judicial Reform in Eastern Partnership Countries Project].
12. Speech recognition and transcription software. Available at: <https://birosag.hu/en/speech-recognition-and-transcription-software>
13. Pirmatov O. Fuqarolik sud ishlarini raqamlashtirish va virtuallashtirish [Digitization and virtualization of civil court]. Abstract of PhD thesis.
14. Channov S.Ye. Sluzhebye otnosheniya: ponyatiye, struktura, obespecheniye [Service relationships: understanding, structure, provision]. Moscow, 2009, p. 19.

Kelib tushgan / Получено / Received: 26.08.2024
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 04.12.2024
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 24.12.2024

DOI: 10.51788/tsul.rols.2024.8.4./RDMX5981

UDC: 341.1/8(045)(575.1)

THE FUTURE OF ASIA AGAINST CORRUPTION: IDEAS FOR THE CONFERENCE ON INTERACTION AND CONFIDENCE BUILDING MEASURES IN ASIA

Valijonov Daler Dilshodovich,

Acting Associate Professor of the Department of
International Law and Human Rights,
Tashkent State University of Law,
Doctor of Philosophy (PhD) in Law
ORCID: 0000-0003-0356-4293
e-mail: daler.valijonov1990@gmail.com

Abstract. *The article examines the problems of determining the legal status of the Conference on Interaction and Confidence Building Measures in Asia (CICA) and issues of combating corruption within this organization as a subject of international and public legal relations. Based on a systematic analysis of the legislation of the Republic of Uzbekistan and international experience, the specifics of the activities of the Conference on Interaction and Confidence Building Measures in Asia (CICA) have been identified using comparative legal and official legal methods. Special attention was paid to the issues of international cooperation of the countries participating in the Conference on Interaction and Confidence-building Measures in Asia in the fight against economic crimes and corruption. It has been established that CICA is a multinational forum that strengthens cooperation in order to promote peace, security, and stability in Asia. Accordingly, a comprehensive approach is needed when considering the functions and tasks of this structure as a regional organization. As a result of the research, recommendations have been developed to improve the participation of the Republic of Uzbekistan within the framework of this organization. Proposals have been developed to improve the legislation on determining the legal status of the Meeting on Interaction and Confidence Building Measures in Asia. The need for special legal regulation of cooperation between the organization's member states at the regional level within the framework of the fight against corruption has been substantiated.*

Keywords: *Conference on Interaction and Confidence-Building Measures in Asia, international and regional organizations, anticorruption policy, international law, law of regional organizations, international and regional cooperation*

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH BO'YICHA OSIYO KELAJAGI: OSIYODA O'ZARO HAMKORLIK VA ISHONCH CHORALARI KONFERENSIYASI UCHUN G'OYALAR

Valijonov Daler Dilshodovich,

Toshkent davlat yuridik universiteti
Xalqaro huquq va inson huquqlari kafedrasi dotsenti v.b.,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Maqolada Osiyoda o'zaro hamkorlik va ishonch choralari konferensiyasi (CICA) ning huquqiy maqomini aniqlash va ushbu tashkilot doirasida korrupsiyaga qarshi kurash masalalari xalqaro ommaviy huquqiy munosabatlar nuqtayi nazaridan o'rganildi. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va xalqaro tajribani tizimli tahlil qilish asosida qiyosiy-huquqiy va rasmiy-huquqiy usullardan foydalangan holda, Osiyoda o'zaro hamkorlik va ishonch choralari konferensiyasi (CICA) faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari aniqlandi. Iqtisodiy jinoyatlar va korrupsiyaga qarshi kurashda Osiyoda o'zaro hamkorlik va ishonch choralari konferensiyasida ishtirok etayotgan mamlakatlarning xalqaro hamkorligi masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Tadqiqot natijasida CICA Osiyo mintaqasida tinchlik, xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash uchun hamkorlikni mustahkamlovchi ko'p millatli forum ekanligi tadqiq etildi. Shunga ko'ra, ushbu tuzilmaning funksiyalari va vazifalarini mintaqaviy tashkilot sifatida ko'rib chiqishda kompleks yondashuv zarur. Shuningdek, maqolada mazkur tashkilot doirasida O'zbekiston Respublikasining ishtirokini yaxshilash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi. Osiyoda o'zaro hamkorlik va ishonch choralari konferensiyasining huquqiy maqomini aniqlashga doir qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha takliflar shakllantirildi. Korrupsiyaga qarshi kurash doirasida tashkilotga a'zo davlatlar hamkorligini mintaqaviy darajada maxsus huquqiy tartibga solish zarurligi asoslandi.

Kalit so'zlar: Osiyoda o'zaro hamkorlik va ishonch choralari konferensiyasi, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar, korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati, xalqaro huquq, mintaqaviy tashkilotlar huquqi, xalqaro va mintaqaviy hamkorlik

БУДУЩЕЕ АЗИИ ПРОТИВ КОРРУПЦИИ: ИДЕИ ДЛЯ СОВЕЩАНИЯ ПО ВЗАИМОДЕЙСТВИЮ И МЕРАМ ДОВЕРИЯ В АЗИИ

Валижонов Далер Дилшодович,

доктор философии по юридическим наукам (PhD),

и. о. доцента кафедры «Международное право и права человека»

Ташкентского государственного юридического университета

